

O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O`RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI
TERMIZ DAVLAT UNIVERSITETI
Ijtimoiy iqtisodiy fakul'teti
«Iqtisodiyot nazariyasi»
kafedrası

5111000- KASB TA'LIMI: iqtisodiyot ta'lim
YO`NALISHI 1-KURS TALABALARI UCHUN
«MUTAXASSISLIKKA KIRISH» FANIDAN
MA`RUZALAR MATNI



Tuzuvchi: O'. Rajabov

Termiz-2017

Kirish

«MUTAXASSISLIKKA KIRISH» fanidan tuzilgan ma'ruza matni 5111000:
Kasbiy ta'limi: Iqtisodiyot ta'lim yo'nalishi o'quv dasturi asosida yozilgan. Mutaxassislikka kirish fani va uning vazifalari, O'quv jarayonining asosiy shakllari. O'quv materiallarining o'zlashtirilishi va uni hisobga olish, O'quv rejalari va dasturlari, O'quv jarayonini ilmiy asosda tashkil etish, Oliy ta'lim tarixi, Mustaqil ishlashni tashkil etish, Kitob ustida ishlash va uning bosqichlari, Talabalarning o'quv tadqiqot va ilmiy tekshirish ishlari, iqtisodchi - pedagogning kasbiy - pedagogik faoliyati aks ettiriladi.

I- ma`ruza: Mutaxassislikka kirish fani va uning vazifalari.

O`quv modullari

- 1.1. Mutaxassislikka kirish fanining maqsadi va vazifalari, fanning asosiy manbalari.
- 1.2. Mutaxassislikka kirish fanining boshqa fanlar bilan aloqasi.
- 1.3. Oliy o`quv yurtlari talabalarining huquq va burchlari.

Aniqlashtirilgan o`quv maqsadlari talaba bu mavzuni to`la o`zlashtirgandan so`ng:

- Fanning maqsadini biladi;
- Fanning vazifalarini aytib beradi;
- Mutaxassis tushunchasiga tavsif beradi;
- Mutaxassislikka kirish fani qachon o`quv rejasiga kiritilgan va uning sabablarini tushuntiradi;
- Talabalarining huquq va burchlarini aytib beridi;
- Mavzuga oid «Klaster» tuzadi.

Tayanch so`z va iboralar

Mutaxassislikka kirish fanining maqsadi, mutaxassislikka kirish fanining vazifalari, fanning boshqa fanlar bilan aloqasi. Mutaxassislik, mutaxassislik.

O`zbekiston Respublikasi prezidenti I. A. Karimov «Kadrlar tayyorlash bo`yicha Milliy dastur xakida gapirganlarida har tomonlama etuk yuqori malakali kadrlar tayyorlash Dasturimizning asosiy sharti bo`lishi kerak» - degan edilar. Faqat shunday kadrlar ta`lim, ilm-fan va ishlab-chiqarishning, umuman iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oydinlashtiradilar, belgilaydilar.

Intellectual hamda sanoati taraqqiy etgan mamlakatlarda ta`lim tizimining bosh maqsadi - bu raqobatbardosh tovarlar etishtirish va yukori malakali kadrlar tayyorlash orqali raqobatga qodir xizmatlarni ko`rsatishdir. Bu mamlakatlarda kasbiy ta`limning iqtisodiy xizmatlari jamiyat taraqqiyotida tobora katta ahamiyat kasb etmokda. Yuqori malakali kadr tayyorlashda ta`lim, ilm-fan va ishlab-chiqarish qay darajada o`zaro bog`langan, o`zaro hamkorlikka erishgan bo`lsa, professional ta`limdan foyda shunchalik ko`p bo`ladi.

AQSh, Fransiya, Yaponiya kabi intellectual va sanoati rivojlangan bir qator davlatlar tajribasining taxlili ko`rsatishicha barcha pog`onalarda etishtiriladigan kadrlar raqobatbardoshligi va kadrlar tayyorlashning sifati:

- ta`lim, ilm-fan va ishlab chiqarishning uzviy bog`langanligi;
- fan-texnika, texnologiya va iqtisodiyot borasidagi erishilgan eng so`nggi yutuqlarga asoslanib ishlab chiqilgan kasbiy ta`lim dasturlari hamda ta`lim muassasalari turlarining rang-barangligi;
- professional ta`lim tizimini iqtisodiyot-ning ustuvor va foyda keltiruvchi tarmog`iga yuz ugirganligi, asoslanganligi;
- ta`lim muassasalarini zamonaviy o`quv-uslubiy adabiyotlari hamda moddiy-texnikaviy bazasi bilan ta`minlanganligi;
- professional ta`lim tizimiga yuqori malakali o`qituvchilar va mutaxassislarni jalb qilinganligi;
- ta`lim jarayonining informatizatsiyalashtirilganligi va kompyuterlashtirilganligi;

- kadrlar tayyorlash sifatini xolisona baholash va nazorat qilish tizimining qullanilganligi;
- intellektni o'lash va baholash, qobiliyat va shaxsiy sifatlarni o'lash va baholash, ularning o'sishi muammolari bo'yicha, shuningdek kasbga yo'naltirish muammolari bo'yicha psixologik - pedagogik izlanishlar, tadqiqot ishlarining bajarilganligi;

Xorijiy mamlakatlar va Respublikamiz tajribasidan kelib chiquvchi fikr-muloxazalar va xulosalar hamda yuqorida zikr etilganlar, O'zbekiston Respublikasi hayotining barcha sohalarida olib borilayotgan isloxotlar siyosatining beshta tamoyili kadrlar tayyorlash Milliy dasturiga asos qilib olingan.

Kadrlar hayotiy siklining uchta asosiy bosqichida ularning malakasi yuqori bo'lishini ta'minlashga kompleks yondoshish Milliy dastur strategiyasining negizida yotadi. **Birinchi bosqichda** kadrlarga bo'lgan extiyoj bashorat qilinadi va shaxs, jamiyat va rivojlanayotgan bozor iqtisodiyoti extiyojlaridan kelib chiqqan holda muayyan talablar aniqlanadi. Bunda oldindan aniqlanuvchi ildam malaka saviyasi o'rganiladi.

Ikkinchi bosqichda kadrlar tayyorlash amalga oshiriladi. Bunda o'rnatilgan malaka saviyasi ta'minlanadi.

Ba nihoyat, **uchinchi bosqichda** kadrlardan kasbiy faoliyati doirasida foydalanish bilan bog'liq bosqichda ta'minlangan malaka saviyasi qo'shimcha kasbiy ta'lim (yoki o'zi mustaqil bilim olish) miqyosida davriy ravishda yangilanishi va ortib borishi kerak bo'ladi.

Kadrlarning tasnifiy tavsifi, davlat ta'lim standartlari, me'yorlar, ta'lim mazmunini, moddiy texnika bazasini, moliyalashtirishni, professor-o'qituvchilar tarkibini, ta'lim muassasasining o'quv-ilmiy ishlab-chiqarish va boshqa faoliyatlarini aniqlovchi Nizomlar va boshqa xujjatlar Milliy dastur markaziy strategiyasining xuquqiy-me'yoriy bazasi bo'lib xisoblanadi.

Yuqoridagi dolzarb vazifalarni hisobga olgan holda ushbu ma'ruzalar matni Universitetning barcha fakultetlari kasbiy-pedagogik tayyorgarlik ta'lim yo'nalishlari talabalari uchun 18 soatli ma'ruza mashg'uloti shaklida, mustaqil fan sifatida 1-kursda o'tilishi lozim bo'lgan «Mutaxassislikka kirish» fani bo'yicha tayyorlandi. Muhandis-pedagog ta'lim yo'nalishi uchun «Mutaxassislikka kirish» fani 2 bo'limga bo'lib o'rganiladi.

Birinchi bo'lim, beshta ma'ruzani o'z ichiga olgan bo'lib, bunda talabalarga o'quv materiallarini o'zlashtirish va uni hisobga olish, o'quv rejalari va dasturlari, o'qitish jarayonining asosiy shakllari tugrisida batafsil ma'lumotlar beriladi.

Ikkinchi bo'lim, to'rtta ma'ruzani o'z ichiga olgan bo'lib, bu bo'limda talabalarining mustakil ishlarini ilmiy asosda tashkil etish, kitob ustida ishlash va uning bosqichlari, talabalarining o'quv va ilmiy-tadqiqot ishlari to'grisida batafsil ma'lumotlar beriladi.

Mutaxassislikka kirish fani o'quv yurtlarining qisqacha taraqqiyot tarixi, ularning tuzilishi va vazifalari, o'quv jarayonini ilmiy asosda tashkil etish, o'kitish jarayonining asosiy shakllari, o'quv rejasining mazmuni, ilmiy-tekshirish ishlari, o'qish va ilmiy ishlarni bajarishda texnika vositalaridan foydalanish, talabalarining xuquq va burchlari, kundalik ish rejimi va mustaqil ishlashni to'g'ri tashkil etish, kitob ustida ishlash, tabiat muhofazasi, bibliografiya texnikasi kabilarni talabalarga tanishtiradi.

Oliy maktab talabalarining huquq va burchlari quyidagilardan iborat:

Huquqlari:

- Jamoat tashkilotlari orqali Universitet-ning ijtimoiy - siyosiy faoliyatida ishtirok etish, o'z insoniy qadr-qimmatlarini hurmat qilinishi, vijdon erkinligi, o'z qarashlari va e'tiqodlarini ifoda etish;
- Davlat ta'lim standartiga muvofiq ta'lim olish;
- Universitet binosida asbob-uskunalaridan, laboratoriyadan, kutubxona fondidan bepul foydalanish;
- Universitetning boshqarish ishlarida ishtirok etish;
- Turli xil ilmiy faoliyat, konferentsiyalar, olimpiyada, ko'rgazma, tanlovlar va universiadalarda ishtirok etish;
- Ishlab chiqarishdan ajiralmagan xolda ta'lim olish va bunda qonunlarda ko'zda tutilgan imtiyozlardan foydalanish;
- ekstren tartibda imtixon topshirish imkoniyatini yaratib berish;
- O'qishni bitirgandan keyin o'z mutaxassisligi bo'yicha ish bilan ta'minlanishi.

Burchlari:

- O'zbekiston Respublikasining qonunlari ahloq va odob qoidalariga rioya etish;
- Universitetning ustavi va ichki tartib qoidalariga rioya qilish;
- o'z bilimlari, amaliy kunikmalari kasb - kor mahoratlari muntazam ravishda mustahkamlab borish hamda ularni umumma'daniy saviyalarini oshirib borish;
- o'qish intizomini va ichki tartib qoidalarini buzganligi uchun talabalarga quyiladigan ijtimoiy jazo choralariidan biri qullaniladi;
- **12 soat** sababsiz dars qoldirgan talaba og'zaki ogohlantiriladi;
- **18 soat** sababsiz dars qoldirgan talabaga hayfsan e'lon qilinadi;
- ichki tartib qoidalarini buzganligi hamda **30 soat** sababsiz dars qoldirgan talaba Universitet talabalar safidan chiqariladi.

Talabalar kurs materiallarini o'zlashtirish uchun nimalar qilinishi lozimligi, o'zlashtirishni hisobga olish, talabalarni yakuniy nazorat va reyting ishlariga tayyorlash hamda ularni o'tkazishni tashkil etish, talabalar o'quv-tadqiqot va ilmiy - tekshirish ishlarining asosiy mazmuni, ularning turmushi, madaniyati va dam olishini tashkil etish, o'quv - mehnat va turmush nafosati kabi sohalarga ham «Mutaxassislikka kirish» fanida alohida urin ajratiladi.

Olinayotgan bilimlar talabalarining ongiga tula singib borishi, bulajak mutaxassislarning hayotiy maslaklariga aylanishi kerak bo'lgan asosiy masaladir.

«Mutaxassislikka kirish» fanining maqsadi talabalarda ishlab-chiqarish va mehnat faoliyatiga kunikma hosil qilishdan iboratdir.

Mutaxassis - bu mohir tashkilotchi, mehnatni ilmiy asosda tashkil qilish maslagini amalga oshira oladigan xodim hisoblanadi. U odamlar bilan ishlaydi, jamiyatni boshqaradi, jamoa tajribasiga tayanib ish ko'radi, o'z o'rtoqlarining maslahatiga quloq soladi, qulga kiritilgan yutuqlarga tanqidiy yondoshadi. Bunday kishi yuqori madaniyatli, keng muloxazali, tadbirkor, o'z ishining ustasi, jamiyatning haqiqiy ziyolisidir.

M.C. Mutaxassis tushunchasini izohlang.
--

Mutaxassislik bu ilm - fan, texnika, sanoat sohalorida har bir mustaqil kasbdir.

O'zbekiston Respublikasi xududidagi barcha Oliy o'quv yurtlarida 1974-1975 o'quv yilidan boshlab o'quv rejalariga «Mutaxassislikka» kirish mustaqil fanini kiritish hakida qaror qabul qilingan edi. Hozirgi paytda bu fan uchun 18 soatli ma'ruza kursi ajratilgan. Bundan ko'zlangan maqsad talabalarni Oliy maktab hayotiga tezroq moslashtirish, uning sharoitini o'zlashtirib olishda ko'maklashish bo'lib, oqibat natijada fanlarni yaxshi o'zlashtirishlarida yordam berish, ulgurmuvchiliklarning oldini olishdan iboratdir.

Mutaxassislikka kirish fani birinchi kurs talabalariga o'quv yurtlarining qisqacha taraqqiyot tarixi, ularning tuzilishi va vazifalari, o'quv jarayonini ilmiy asosda tashkil etish, o'qitish jarayonining asosiy formalari, o'quv rejasining mazmuni, ilmiy-tekshirish ishlari, o'quv va ilmiy ishlarni bajarishda texnika vositalardan foydalanish, talabalarni huquq va burchlari, kundalik ish rejimi va mustakil ishlashni to'g'ri tashkil etish, kitob ustida ishlash, tabiat muxofazasi bibliografiya texnikasi kabilar bilan tanishtiradi. Ushbu kursda o'quv materiallarning o'zlashtirilishi uchun nimalar qilinishi lozimligi, o'zlashtirishni hisobga olish, talabalarni reyting nazoratlariga tayyorlash hamda ularni o'tkazishni tashkil etish, talabalar o'quv tadqiqot va ilmiy - tekshirish ishlarining asosiy mazmuni, ularni turmushi, madaniyati va dam olishini tashkil etish, o'quv mehnati va turmush nafosati singari sohalarga ham aloxida urin ajratiladi.

M.C. Mutaxassislikka kirish fanining boshqa fanlar bilan aloqasini tushuntiring.

Mustaqil ishga oid topshiriqlar

1. Belgilangann o'quv maqsadlariga erishganlik darajangizni aniqlang.
2. Mavzuga oid «Klaster» to'zing.

2-ma'ruza. O'quv jarayonining asosiy shakllari. O'quv materiallarining o'zlashtirilishi va uni hisobga olish.

O'quv modullari

- 2.1. Dars shakllari va ularning ahamiyati.
- 2.2. Talabalar o'zlashtirishlarini baxolash mezonlari.

Aniqlashtirilgan o'quv maqsadlari talaba bu mavzuni to'la o'zlashtirgandan so'ng:

- Ma'ruza mashg'ulotiga qo'yiladigan talablarni aytadi;
- Amaliy va tajriba mashg'ulotlarini tushuntiradi;
- Ceminar mashg'ulotiga izox beradi;
- Baholash tizimini tushuntiradi;
- Yakuniy baholash talablarini biladi;

- «Klaster» to`zadi.

Tayanch so`z va iboralar

Dars shakllari, ma`ruza, seminar, amaliy va tajriba mashg`ulotlari, kurs ishi, maslahat, bitiruv malakaviy ish, joriy baholash, oraliq baholash, yakuniy baholash, reyting tizimi.

Oliy o`quv yurtlarida o`qitish jarayonida ta`lim berishning turli shakl va metodlaridan foydalaniladi. Ta`limning asosiy shakllari ma`ruza, seminar-amaliy, laboratoriya- tajriba mashg`ulotlari, maslahat va kurs ishlari, bitiruv malakaviy ishlari hisoblanadi. Bundan tashqari talabalarning ilmiy jamiati (TIJ) yo`li bilan o`qituvchilar rahbarligida, kafedra va laboratoriyalar qoshida talabalar ilmiy to`garaklarida va universitet (Universitet) talabalarining ilmiy konferentsiyalariga dokladlar tayorlash va unda ishtirok etish yo`li bilan ham chuqur bilim beradi. Ma`ruza o`qitish jarayonining asosiy shaklidir. O`qitish jarayoni shakllari ichida maruza eng asosiysi hisoblanadi. U ancha murakkab va ko`p mehnat talab qiladigan ishdir. Ma`ruzani o`qish yuqori malakali olimlarga topshiriladi, chunki maruza kursini tayyorlash oliy maktab o`qituvchisidan katta mahoratni talab etadi. Har bir ma`ruza matnini tayyorlash esa, haqiqiy ilmiy ishni eslatadi. Ma`ruzada faqat o`quv materiallarigina o`rganilib qolinmasdan, balki talabalarni g`oyaviy - siyosiy jihatdan tarbiyalanishi ham zarur.

Ma`ruza vaqtida ham, xar turli amaliy mashg`ulotlarda ham, asosiy e`tibor talabalarning mustaqil fikr yuritishini rivojlantirish, bilim va malakasini oshirishga qaratilgan bo`ladi. Ma`ruza auditoriyada olib boriladigan mashg`ulotlar ichida eng ko`p qo`llaniladigan dars shakli hisoblanadi. Ma`ruzaning g`oyaviy - siyosiy yo`nalishini belgilashda o`qituvchi-pedagoglar asosiy rol uynaydi.

Ma`ruza metodidan, asosan oliy o`quv yurtlarida foydalaniladi va u o`qitish jarayonining muxim qismini tashkil etadi. Lekin ma`ruza shakli o`rta maxsus o`quv yurtlarida (asosan ijtimoiy fanlar bo`yicha) ham qo`llanila boshlandi. Shuningdek, undan umumiy ta`lim o`rta maktablarining yuqori sinflari o`qituvchilariga yangi axborot berishda foydalaniladi.

Oliy maktablarda o`qiladigan ma`ruzalar, darslik qo`llanmalar, ma`ruza matnlari va boshqa manbaalardagi materiallarni qayta bayon qilib berishdan iborat bo`lib qolmasdan, balki o`qituvchining aniq bir soha bo`yicha shaxsiy ilmiy-pedagogik, ijodiy izlanishlarini ham o`zida jamlashi lozim. Haqiqiy o`qituvchi-pedagog ma`ruzaga vaqtinchalik topshiriq deb qaramasdan, balki muntazam ravishda unga tayyorlanib borishi, ma`ruzani qayta ishlab, tuldrib va mukammallashtirishi lozim. Bunda har bir pedagogning o`z amaliy qarashlari, materiallarga shaxsiy munosabati, ilmiy umumlashtirmalari bo`lishi shart. Buning uchun adabiyotlar tanlash, ulardan urinli foydalana bilish, matbuotda paydo bo`layotgan yangi adabiyotlarni etarli hisobga olib borish talab etiladi.

Har bir pedagog ma`ruzani tayyorlashda ushbu mavzuga taalluqli bo`lgan ko`pgina materiallarni qamrab olishga harakat qilishi lozim.

Oliy maktabda ma`ruzaning qo`yidagi turlaridan foydalaniladi: akademik ma`ruza, ma`ruza - xikoya, ma`ruza-suhbat, ma`ruza-munozara va ommaviy ma`ruza. Bu ma`ruzalar yozma shaklda ifoda etiladi. Buning uchun ma`ruzachida ish rejasi bo`lishi lozim. Ayniqsa, ma`ruzada ishlatiladigan izohlar, ko`chirmalar, ma`lumotlar, misollar uchun yozma ravishda alohida tarqatma materiallar tayyorlangan bo`ladi.

Ma`ruza materiallarini va to`laqonli ma`ruzaning o`zini tayyorlashda

yangi atamalarni, tushunilishi qiyin bo'lgan so'zlarni va umuman materiallarni diqqat bilan qayta - qayta o'qib olish, turli manbalarni erinmasdan ko'rib chiqish foydalidir.

Talabalar ma'ruza tinglayotganlarida ma'ruzachi tomonidan beriladigan materiallarni diqqat bilan, avvalo tarixiy davriy materiallarni, undagi tarixiy voqealarni, o'tmish tarixida ayrim shaxslarning rolini, diagramma va sxema materiallarini, miqdoriy ko'rsatkichlarni, ko'chirmalarni anik adres bilan yozib borishlari kerak. Ma'ruza davomida talabalar barcha imkoniyatlardan (ko'rish, eshitish, yozib olish kabi) mumkin kadar tularoq foydalanishga erishishlari zarur. Ma'ruzani yozib olishda hamma o'quv qurol- asboblari-daftar, ruchka, qalam, musavvirlik va chizmachilik uchun zarur bo'lgan materiallar taxt qilib kuyiladi. Ctolda ortiqcha narsalar bo'lmasligi kerak. Talabadan ma'ruza davomida aytilgan fikrlar va materiallarning hammasini sabr-toqat bilan tinglash va eslab qolishga harakat qilish talab qilinadi. IOqorida aytilgan tayyorgarlik ishlari tinglovchilarga katta ruxiy-fiziologik kayfiyat baxsh etadi.

Iisixologlarning statistik ma'lumotlariga qaraganda, ma'ruzaga qatnashuvchi talabalarning 65-80 foyizi diqqat - e'tibor bilan ma'ruzani tinglar ekan. Bu qoniqarli holat hisoblanadi. Ma'ruzaga talabalarning qatnashishi va uni o'zlashtirib olishi o'qituvchi - pedagogning materiallarni auditoriyaga qanday etkazib berishiga, uning saviyasiga, mahoratiga bog'liqdir. Chunki ma'ruza qiziqarli bo'lmasa, tinglovchilar miqdori pasayib boradi va ayrim talabalar qatnashmay quyadi.

Talaba ma'ruzani tinglash va yozib borishda ma'lum kunikma va malakaga ega bo'lishi kerak. Ma'ruzani tinglashda talaba aktiv, mustaqil fikrlash faoliyatini boshidan kechiradi. Demak, ma'ruzaning moxiyatini yaxshi tushunish uchun pedagog-ma'ruzachining har bir so'zini diqqat bilan tinglash va fikrning asosiy moxiyatiga e'tibor berish zarur. Ma'ruzaning eng avvalo, rejasini yozib olish lozim, lekin ma'ruzachi aytgan gaplarning hammasini yozib borish shart emas. Uning asosiy mazmunini o'z so'zlari bilan yozib borish etarlidir. Bunda berilayotgan ta'riflar, kuchirmalar to'liq va anik qilib yozib olinishi shart. Ma'ruzani yozib borishda daftarning bir chekkasida uning to'rtidan bir yoki beshdan bir qismi xajmida ochik joy qoldiriladi. Shu ochik joyga ma'ruza vaktida paydo bo'lgan savollar yoki ayrim muloxazalarni yozib borish mumkin. Ma'ruzani yozib olishda so'zlarni qisqatirib yozish va shartli belgilarni ishlatish usulini qullash ham foydadan xoli emas.

M.C. Seminar va ma'ruza mashg'ulotlarining farqini tushuntiring.

Amaliy va tajriba mashg'ulotlari ma'ruza kursida olingan bilimlarni amalda tadbqiq qilish maqsadida o'tkaziladigan dars shakllaridan biridir. Bu ikki mashg'ulot o'zining xususiyatiga ko'ra bir- biri bilan chambarchas bog'liqdir. Amaliy va tajriba darslarida talabalar ikki guruhga bo'linadilar. Har bir kichik guruhga alohida o'qituvchi rahbarlik qiladi. Amaliy mashg'ulotlar asosan ijtimoiy fanlar (tarix, til, adabiyot, huquq kabi), tajriba mashg'ulotlari esa tabiy fanlar (kimyo, fizika kabi) uchun qo'llaniladi.

Amaliy va tajriba darslari talabaga ma'ruza jarayonida olgan bilimlarini amalda tadbqiq etishda malaka hosil qiladi. Bu mashg'ulotlar oxirida, har bir talaba vazifani bajarib bo'lgandan keyin, o'qituvchi qilingan ishlarni ko'zdan kechiradi, ishlatilgan asboblari joy - joyiga quyiladi.

Maslahatlar Oliy ta'limda o'kitishning keng qullaniladigan bir shakli bo'lib, ko'pincha ma'lum blok materiallari o'tib bulingach, undan keyingi oraliq va yakuniy nazorat va reytinglardan oldin o'tkaziladi. Maslahat-lardan boshqa

maqsadlarda ham, masalan: biror muammoni echishda yoki biror mustaqil masalani echa olmaganda ham foydalaniladi. Bunda shu soha mutaxassisidan maslahat so`raladi.

Kurs ishlari oliy o`quv yurtlarida oxirgi kurs talabalarini ilmiy - tadqiqot ishlari olib borish malakasini hosil qilishga, ma`lum ilmiy xarakterga ega bo`lgan qisqacha ma`ruza yozishga o`rganishga chorlaydi. Odatda, kurs ishlari yozishda o`qituvchi rahbarligida mavzu tanlab olinadi va mavzuga doir reja tuziladi, rejaga asosan kurs ishi yozilib, takriz qilinadi va o`qituvchiga topshiriladi. Kurs ishini bajarish jarayonida o`qituvchi - rahbardan muntazam ravishda maslahatlar olib turiladi. Uning hajmi ijtimoiy fanlar bo`yicha 15-20 bet, tabiiy fanlar bo`yicha 7-10 bet bo`lishi maqsadga muvofiqdir. Kurs ishlari talabalarining o`quv tadqiqot ishlarining asosiy shakllaridan birini tashkil etadi.

Bitiruv malakaviy ishlari eng yaxshi o`zlashtiruvchi va ilmiy izlanish ishlari olib boruvchi, qobiliyati bo`lgan talabalarga beriladi. Talabalar oliy o`quv yurtini tamomlayotganlarida tanlagan maxsus kurslari yuzasidan ilmiy-tadqiqot ishlarini olib boradilar. Ular shu soha bilan bevosita bog`lik bo`lgan adabiyotlarni ishlab chiqib, o`z ishlarining boshqa ishlardan farqini, uning ishlab chiqarishga, xalq xujaligiga keltiradigan foydasini aniq ko`rsata bilishlari kerak. Bitiruv malakaviy ishi o`qituvchi rahbarligida yoziladi.

Talabalar tomonidan bajariladigan Bitiruv malakaviy ishlari xaqiqiy ilmiy ishlarning boshlanishidir. Bitiruv malakaviy ishi talabaga ilmiy izlanish, ma`lum muammolarni o`rganish va uning mohiyatini taxlil qilishda katta yordam beradi. 3otan, talabalar oliygohda o`qish jarayonida ma`lum doirada ilmiy-tekshirish ishlari olib borgan bo`ladilar. Barcha bu jarayonlar talabalarining ilmiy qobiliyatlarini charxlab boradi.

Talabalar bilimini nazorat qilish va baholashning reyting tizimi tug`risidagi nizom haqida.

I. Umumiy qoidalar:

1. Ushbu Nizom O`zbekiston Respublikasining «Ta`lim tug`risida» va «Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi» qonunlari hamda O`zbekiston Respublikasi OUMTB ning 1998 yil 30 oktyabr 305-sonli buyrug`i bilan tasdiqlangan «Oliy ta`lim to`g`risida»gi Nizom hamda Bazirlikning 1999 yil 8 iyun 194-sonli buyrug`i bilan tasdiqlangan Reyting tizimini takomillash-tirish hakidagi na`munaviy Nizomlarning bajarilishidir.

2. Talabalarining bilimini reyting tizimi orqali baholashdan maqsad, talabalarda o`qitilayotgan fanlarni chuqur egallash, topshiriqlarga ijodiy yondashish mustaqil firlash, o`z bilimini muntazam ravishda oshirishga intilish hamda adabiyotlardan keng foydalanish kabi xususiyatlarni rivoj-lantirish va shu tariqa raqobatbardosh mutaxassislarni tayyorlashga erishish.

3. Reyting tizimi qo`yidagi vazifalarni bajarishga qaratilgan.

-talabalar o`zlashtirishini muntazam ravishda nazorat etib borish, ularni semestr (o`quv yili) davomida o`z ustilarida uzluksiz faol ishlashlarini ta`minlash;

-talabalar bilimini haqqoniy, aniq va adolatli baholash hamda natijalarni ularga muntazam ravishda ma`lum qilish;

-talabalarda mustaqil ishlash ko`nikmalarini keng rivojlantirish;

-professor o`qituvchilarda ma`ruza va amaliy mashg`ulotlarga puxta tayyorgarlik ko`rish, baholash savollarini tuzishda mas`uliyatini oshirish.

4. Fan bo`yicha maksimal reyting bali o`quv rejasida aynan shu fanga ajratilgan soatlar va mustakil ta`lim uchun ajratilgan soatlar miqdori bilan belgilanadi.

Talaba bilimini baholashda, avval uning o`zlashtirish ko`rsatkichi aniqlanadi, so`ng dars soatlari miqdoriga muvofiq, uning fan bo`yicha reytingi hisoblab topiladi.

II. Baholash turlari va shakllari.

5. Talabanning fan bo`yicha o`zlashtirishini baholash semestr (o`quv yili) davomida muntazam ravishda olib boriladi va qo`yidagi turlar orqali amalga oshiriladi:

- joriy baxolash (JB);
- oralik baxolash (OB);
- yakuniy baxolash (YaB).

JB da fanning har bir mavzusi bo`yicha talabanning bilim darajasini (o`zlashtirishini) aniqlab borish nazarda tutiladi va u odatda, amaliy mashg`ulotlar (seminar va laboratoriya ishlari) darslarida amalga oshirilishi mumkin.

OB da fanning bir necha mavzularini qamrab olgan bo`lim yoki qism bo`yicha nazariy mashg`ulotlar o`tib bo`lingandan so`ng talabanning nazariy bilimlari baholanadi va unda talabanning muayyan savol yoki muammoni echish mahorati va qobiliyati aniklanadi.

YaB da fanning semestr (o`quv yili) davomida o`tilgan hajmi doirasida talabanning bilimi baholanadi. YaB turiga ajratilgan ballar miqdori o`quv rejasida fanga semestr (o`quv yili) uchun ajratilgan 30% miqdorida belgilanadi.

Fan bo`yicha JB talaba to`plashi mumkin bo`lgan maksimal reyting balining 40%, OB maksimal reyting balining 30%, YaB maksimal reyting balining 30% miqdorida belgilanadi.

YaB turi Universitet ilmiy kengashining 1999 yil 4 sentyabr 84 sonli qarori bilan tasdiqlangan «Reyting tizimining yakuniy baholash bosqichida «yozma ish» usulini tadbqiq etish bo`yicha nizomi»ga asosan o`tkaziladi.

Tayanch tushunchalariga asoslangan «Ezma ish» usuli reyting tizimining YaB va OB bosqichida o`tkaziladi.

Agar o`quv rejasida mazkur fan bir necha semestr davomida o`tilishi belgilangan bo`lsa fan bo`yicha talabanning umumiy reyting bali har bir semestrda shu fandan tuplagan reyting ballari yig`indisiga teng bo`ladi.

6. Baholash turlari har bir fanning xususiyatlaridan kelib chiqqan holda, dars jarayonida surov o`tkazish, test savollariga javob berish, kontrol ishlarini bajarish, suhbat, yozma ish yoki shu kabi boshqa shakllarda ham o`tkazilishi mumkin.

7. Dekanat va kafedralar belgilangan tartibda fan bo`yicha talabanning JB hamda YaB (yozma ish yoki boshqa usul) turlarida ko`rsatilgan o`zlashtirish ko`rsatkichlarini taxlil etib borishlari va ularning natijalarini belgilangan shakldagi qaydnomalarda qayd etishlari lozim. Baholash natijalari o`quv bo`limida operativ ravishda ishlovdan o`tkaziladi.

8. Reyting natijalari Universitetning ilmiy kengashida muntazam ravishda muhokama qilib boriladi va tegishli qarorlar qabul qilib boriladi.

Kafedralar fan bo`yicha baholash turlarining har biri bo`yicha reyting ballarini hisoblash kriteriyalarini ishlab chiqadi (nazorat ishlari, test savollari, savollar to`plami va xakazo) va Universitet o`quv - uslubiy kengashda tasdiqlanadi.

III. Talaba bilimini baholash tartibi.

9. Semestr davomida o`qitilgan fan bo`yicha maksimal balning kamida 56 % ni to`plagan talaba qoniqarli o`qietgan deb hisoblanadi. Semestr davomida o`qitilgan fan bo`yicha maksimal balning 55% ni va undan kam ball to`plagan talaba qoniqarsiz o`qietgan talaba (akademik qarzdor) hisoblanadi.

10. Semestr davomida fanlar bo`yicha tuplagan ballar quydagi o`zlashtirish ko`rsatkichlari bilan baholanadi:

- 86-100% - «a`lo»
- 71-85% - «yaxshi»
- 56-70% - «o`rta»
- 55% va undan kam qoniqarsiz.

11. Talabaning barcha turdagi amaliyotlardan olgan bilim va ko`nikmalari, kurs ishi yoki kurs loyihasi, bitiruv malakaviy ishi (loyixasi), davlat attestatsiyasi natijalari o`zlashtirish ko`rsatkichlari bilan baholanadi va reyting daftarchasida alohida qayd etiladi. Masalan: o`quv amaliyoti 1-kursda to`rt xafta bo`lsin, bir hafta - olti ish (o`qish) kuni, har kuni olti soatdan, jami  $4 \times 6 \times 6 \times 144$  soat, ya`ni ushbu amaliyot uchun belgilanadigan maksimal ball 144 soatni tashkil qiladi. Maksimal ball kurs ishi uchun 30, kurs loyihasi uchun 50. Bitiruv malakaviy ishi (loyihasi) uchun maksimal ball 150, ijtimoiy-gumanitar fanlar, (xususan, chet tili bo`yicha ham) yakuniy attestatsiya sinovi uchun maksimal ball 100, ta`lim yo`nalishi (mutaxassislik) bo`yicha fanlararo yakuniy attestatsiya sinovi uchun maksimal ball 150.

12. Reyting ballarini hisoblashda talabaning o`quv mashg`ulotlardagi faolligi, mustaqil ishlarni bajarishga ijodiy yondosha olish, o`quv mehnat intizomiga amal qilish sifatleri ham xisobga olinishi (reyting bali doirasida 10% gacha) maqsadga muvofiq.

13. JB, OB, va YaB turlarida fanni o`zlashtira olmagan (55% va undan kam tuplagan) yoki baholash turlarida sababli ishtirok etolmagan talabalarga dekaning ruhsati bilan bir hafta muddat ichida qayta baholashdan o`tishga ruhsat berilishi mumkin.

14. Qishlok xujalik ishlariga jalb qilinishi natijasida qolib ketgan JB va OB lar o`qishga qaytilgandan keyin tegishli muddatlarda o`tkaziladi va qolib ketgan baholash ballari qushib hisoblanadi.

15. Fan bo`yicha belgilangan maksimal reyting balining 55% va undan kam ball to`plagan talaba, belgilangan tartibda rektorning buyrug`i bilan talabalar safidan chetlashtiriladi (birinchi kurs talabalariga nisbatan o`quv yili yakunlari bo`yicha amalga oshirish maqsadga muvofiq).

16. Talabani kursdan kursga o`tkazishda o`quv rejada muayyan semestr (o`quv yili) ga belgilangan fanlardan talaba to`plagan reyting ballar miqdori hisobga olinadi va rektorning buyrug`i bilan amalga oshiriladi.

M.C. Talabalar bilimini nazorat qilish va baholashning reyting tizimi haqida tushuncha bering.

Mustaqil ishga oid topshiriqlar

1. Belgilangan o`quv maqsadlariga erishganlik darajangizni tekshiring.

2. Mavzuga oid «Klaster» tuzing.

3-ma`ruza. O`quv rejalari va dasturlari.

O`quv modullari

3.1. Ta`lim mazmuni va o`quv rejalari.

3.2. O`quv dasturlari va darsliklar.

3.3. O`quv dasturida ilmiylik qoidasi.

Aniqlashtirilgan o`quv maqsadlari talaba bu mavzuni to`la o`zlashtirgandan so`ng:

- Ta`lim mazmunini tushuntiradi;
- O`quv rejani izohlaydi;
- O`quv dasturi va darsliklarni ahamiyatini anglaydi;
- O`quv dasturi qoidalarini sanaydi;
- Mavzuga oid «Senkveyn» tuzadi.

Tayanch so`z va iboralar

Ta`lim mazmuni, o`quv dasturi, o`quv reja, darslik, o`quv dasturiga quyiladigan talablar, namunaviy o`quv dasturi.

O`quv jarayoni tashkiliy va metodik shakllardangina iborat bo`lib qolmasdan, u keng va ko`p qirralidir: o`quv rejalari, o`quv dasturlari, dars jadvallari, sinovlar, maslahatlar, reytinglar, turli xil tajriba va boshqa shu kabilarni ham qamrab oladi. Uning har bir bo`lagi o`z mazmunini va yo`nalishiga egadir.

Hozirgi vaqtda oliy maktab oldida shakl va mazmuni birga qo`shib borishning samarali yo`llarini izlab topish va uni o`qish jarayoniga joriy qilish vazifasi turibdi. Ana shunday imkoniyatlardan biri o`qitish jarayonini ilmiy asosda tashkil etishdan iborat bo`lib, u g`oyaviy jihatdan mustahkam, har tomonlama taraqqiy etgan, mustaqil fikr yurita oladigan yuqori malakali mutaxassislarni tayyorlab etkazish uchun hizmat qilishi lozim.

O`quv rejasi davlat hujjati bo`lib, o`quv ishlari tartibi, mazmuni, shakllari (turlari)ni aniq belgilab berishda, shuningdek, talabalarning bilimini nazorat qilish hamda baholashda alohida ahamiyatga egadir. O`quv rejasida ma`ruza va amaliy mashg`ulotlar, imtixon sessiyalari, bitiruv malakaviy ishlari, ta`til singarilarni olib borish va o`tkazishning muddatlari aniq ko`rsatiladi. O`quv rejasiga muvofiq boshlang`ich kurslarda ko`proq umumiy fanlar o`qitiladi, yuqori kurslarda esa mutaxassislik bo`yicha ma`ruza va amaliy mashg`ulotlar o`tkaziladi.

O`quv rejalari hamma o`quv yurtlari uchun bir xilda emas, chunki ularning har biri o`ziga xos xususiyatlarga ega bo`lib, o`quv muddatini belgilashda hisobga olinadi.

Har bir talaba uchun auditoriyada o`tiladigan bir kunlik ma`ruza, amaliy mashg`ulotlar va mustaqil ishlar uchun 10 soat vaqt mezon hisoblanadi. Shanba kuni bundan kamroq bo`lishi mumkin. Demak, bir haftada o`rtacha 50-56 soat vaqt sarf etilishi lozim. I-II kurslarda ma`ruza va amaliy mashg`ulotlarga 5 soat, mustaqil tayyorlanishga 5 soat, yuqori kurslarda esa 4-6 soatga tug`ri kelishi

tabiiy xoldir. Bir kunda o`tilgan darslarning daslabki soatlari serunum, sermaxsul o`quv soatlari hisoblanadi.

Hozirgi vaqtda amalda qullanilib kelinayotgan o`quv rejalari, muhandis - pedagog ta`lim yunalishi mutaxassisliklari bo`yicha umumiy o`quv soatlari qo`yidagicha ajratiladi, nazariy ilmiy darslarga - 54 %, ishlab-chiqarishga moslab tayyorlashga - 18 %, sinov va imtihonlarga -12 %, bitiruv malakaviy loyihalarga (ishlarga) - 6 %, ta`tillarga (mehnat semestrlari bilan birgalikda) - 10%.

Har bir fakultet (uning bo`limlari) uchun o`quv rejalari tuziladi. O`quv rejasida 4 yil mobaynida o`qiladigan fanlar bo`yicha ma`ruzalar, amaliy mashg`ulotlar, maxsus kurslar, maxsus seminarlar, kurs va bitiruv malakaviy ishlari, pedagogik va ishlab chiqarish tajribalari, imtihon va test sinovlari muntazam ravishda aniqlab beriladi. O`quv rejasi tuzib bo`lingach, muxokama etiladi va tasdiqlanadi. Tasdiqlangan o`quv rejasini uzoq yillargacha amalda qullanilib boriladi. Lekin o`qish jarayonida ba`zi o`zgartirishlar kiritish mumkin va bu o`zgartirishlar kafedra va fakultetning tavsiyasi bilan Universitet kengashida tasdiqlangandan so`ng kuchga kiradi.

Namunaviy o`quv dasturi - tayanch oliy o`quv yurti tomonidan tuzilib Oliy va o`rta maxsus ta`lim vazirligi tomonidan tasdiqlangan bo`lib, ta`lim mazmuni uning talabalar tomonidan o`zlashtirilishining eng maqbul usullari, axborot manbaalari ko`rsatilgan me`yoriy hujjatdir.

O`quv rejasidagi har bir fan o`zining o`quv dasturiga ega bo`ladi. Dasturlarni olimlar va tajriba o`tkazuvchi o`qituvchilar tuzishi mumkin. Dasturlar ma`ruza va amaliy mashg`ulotlarni olib boruvchi olim-pedagoglar tomonidan tayyorlangani ma`qul. Chunki o`quv rejasi-ning mohiyatini faqat auditoriya bilan muloqotda bo`lgan mutaxassisgina tula ochib bera olishi mumkin.

Dastur qisqagina so`z bilan boshlanib (so`z boshi dasturni tuzuvchi yoki muxarrir tomonidan yoziladi), so`ngra bir necha boblar yoki bo`limlarga ajraladi. Har bir bob yoki bo`limda alohida o`tkaziladigan mavzu va kichik mavzuchalar berilib, oxirida zaruriy va qushimcha adabiyotlar ruyhati keltiriladi.

Dasturda fanlar bob, qism va bo`limlarga ajratilib, har bir mavzu bo`limlarga bo`linadi, har bir bob, bo`lim yoki qismdan so`ng foydalanishi lozim bo`lgan adabiyotlar ruyhati ushbu fanga bevosita taaluqli adabiyotlar alfavit tartibida keltiriladi. Bu o`qituvchining ma`ruza va amaliy mashg`ulotlarga tayyorgarlik ko`rishini osonlashtiradi. Shuni alohida qayd etish lozimki, dastur beriladigan adabiyotlar ham o`qituvchi, ham talabaga muljallangan. «Mutaxassislikka kirish», «Hozirgi o`zbek adabiy tili», «O`zbek dialektologiyasi», «O`zbekiston tarixi» kabilar shular jumlasidandir.

Shuning uchun o`qituvchilar dasturdagi adabiyotlarning bir qisminigina talabalarga mustaqil ta`lim uchun foydalanishni tavsiya etadilar.

Ma`ruzalar va ayrim amaliy mashg`ulotlar jadvali bir semestr davomida o`tiladigan fanlar yuzasidan tuziladi. Unda yarim yillik soatlar hisobga olinib, haftalarga bo`linadi. Shuning uchun, har bir semestr bo`yicha o`tilishi lozim bo`lgan soatlarni muntazam ravishda jadvalga joylashtirish va o`tish, tabiiy xol hisoblanadi. Dekanat dars jadvalining to`g`ri tuzilishiga alohida e`tibor berishi lozim. Qulay variantda tuzilgan dars jadvali o`z navbatida o`qituvchining ham, talabalarning ham vaqtini tejaydi va ishini osonlashtiradi.

Mavjud o`quv dasturlari asosida o`qituvchi o`z ish dasturini tuzadi. Unda kerakli materiallar, adabiyotlar va mashg`ulotlarning hajmi (soatlari) aniq ko`rsatiladi va u detallashtiriladi.

Har bir o`quv fani uchun o`quv dasturi tuziladi. O`quv dasturi o`quv rejasi asosida ishlab chiqiladi. O`quv dasturi har bir o`quv fanining o`qitish uchun ajratilgan bilim hajmi, tizimi va g`oyaviy-siyosiy yo`nalishini aniqlab beradigan davlat hujjatidir.

O`quv dasturi quyidagi bir qator qoidalarga amal qilgan holda tuziladi.

1.Dasturning qat`iyligi. O`quv dasturlari jamiyatimiz taraqqiyotining har bir bosqichida fan - texnika, ishlab chiqarish hamda ijtimoiy munosabatlar sohasida erishilgan darajani aks ettirishi lozim. Bu, ular har yili ko`rib chiqilishi kerak, degan gap emas, aksincha, hamma o`quv fanlariga oid dasturlarning bir necha yillar mobaynida kat`iy bo`lishiga erishmoq darkor. Dasturning qat`iyligi qat`iy dasturlar ishlab chiqish uchun katta ahamiyatga egaki, bu darsliklar uzoq yashashi va o`quv jarayonida uzoq vaqt foydalanishi kerak.

2.O`quv dasturida ilmiylik qoidasi.

Dasturga borliqni anik, haqqoniy aks ettirgan, ilmiy jihatdan tekshirilgan ishonchli materiallar kiritiladi.

Ilmiy bilimlarning tobora rivojlanib borishi va uni ishlab chiqarishda tadbiq etilishiga doir ma`lumotlar maktab o`quv fanlarga ham o`zgarishlar kiritishga olib kelganidek, o`quv dasturidagi ayrim eskirgan masalalar o`quv fanlaridan chiqarib tashlanadi.

3.O`quv materiallari mazmunini tug`ri tanlash. Fan materiallarini tanlashda unda isbotlar, misollar, mantiqiy umumlashma va xulosalarning to`g`ri uyg`unlashuviga alohida e`tibor beriladi. Aniq misollar bo`lmasa o`rganilayotgan hodisalarni nazariy jihatdan tushunish mumkin emas.

4.Nazariyaning amaliyot bilan birligi qoidasi. O`quv dasturida nazariyaning amaliyot bilan birligi qoidasi, birinchi navbatda, eng avvalo, ilmiy bilimlarning turmushda, ishlab chiqarish amaliyotida tutgan o`rni ko`rsatib beriladi. Ilmiy bilim kunikma va malakalarning o`zaro mustahkam bog`liq bo`lishi hamda ta`lim jarayonidagi nazariy ma`lumotlarning amalda qullanib borish jarayonida o`z aksini topadi.

5. O`quv dasturlarida tarixiylik qoidasi. O`quv dasturlari tarixiylik qoidasiga asoslangan holda tuziladi. Bunda o`quv fanlarining xarakteri nazarda tutiladi. Masalan, tarix fanini o`qitishda tarixiy voqealar izchillik va xronologik tarzda bayon etilsa, matematika, informatika, fizika va boshqa qator fanlarni o`qitishda fan olamidagi ma`lum bir ilmiy xodisa, qoida va qonunlarning paydo bo`lishi, uning kelajak istiqboliga oid ma`lumotlar berib o`tiladi.

6. Dastur ikki usul bilan: ketma-ket (muntazam) va kontsentrik (markazlashgan) tarzda joylashtirilishi mumkin.

Ketma-ket joylashtirilganda o`quv materialining har bir keyingi qismi avvalgi qismining davomi bo`ladi, har bir qismdagi materialning mazmuni uning mazkur oliy sinf o`quvchilariga tushunarli bo`lishini hisobga olgan holda tula yoritiladi.

Darslik o`quv jarayonining zarur qismidir. Ko`p vaqtlardan beri u o`qitishning eng muxim vositasi hisoblanadi.

Darslik - o`quvchilarning ikkinchi «muallimi». Chunki u, avvalo, o`quvchi uchun zarur qullanmadir.

Har bir o`quv fanining mazmuni darslikda batafsil yoritiladi. Darslik tegishli fanga oid ilmiy bilim asoslarini dasturga va didaktika talablariga muvofiq ravishda bayon qiluvchi kitobdir.

Darsliklar bilan bir qatorda, ayrim o`quv fanlari yuzasidan o`quv qo`llanmalari ham tuziladi.

Ta`lim tizimini qayta qurish - darslik yaratuvchilari oldiga bir qator

talablar quyadi.

1. Har qaysi o`quv fani uchun yaratiladigan darslikda ilmiy bilimlar tizimi va uning hajmi dastur talablariga hamda shu sinf o`quvchilarining yosh xususiyatlariga mos keladigan bo`lishi kerak.

2. Darslikda bayon qilingan ilmiy bilimlarning nazariy asoslari va g`oyaviy yo`nalishi tizimli va izchil bo`lishi, darslikda keltirilgan dalillarning ishonchli bo`lishi, ular tug`ri taxlil, aniq ta`rif etilishi, tegishli xulosalar chiqarilishi hamda shu orqali o`quvchilarda ilmiy dunyoqarash, eng yaxshi insoniy fazilatlar tarkib topishini ta`kidlashi lozim.

3. Nazariy bilimlar ishlab chiqarish amaliyoti bilan bog`langan bo`lishi kerak.

1. Darslikda bayon qilinayotgan materialning xarakteriga bog`lik holda tegishli qoida va ta`riflar berilishi, dalillar keltirilishi hamda darslik yaxshi bezatilgan bo`lishi, ba`zi materiallar rasm, sxema, diagramma va boshqa illyustratsiyalar bilan boyitilishi talab etiladi.

2. Darslik o`quvchilar tushunishi oson bo`lgan jonli tilda yozilishi, ayni zamonda fikrlar aniq va qisqa bo`lishi kerak.

3. Darslikning tashqi ko`rinishi, bezagi o`sha sinf o`quvchilarining estetik didlariga mos keladigan bo`lmog`i lozim.

M.C. Ta`lim mazmuni qanday hisobga olish bilan belgilanadi

Mustaqil ishga oid topshiriqlar

Belgilangan o`quv maqsadlariga erishganlik darajangizni tekshiring.
Mavzuga oid «Cenkveyn» tuzing.

4-ma`ruza. O`quv jarayonini ilmiy asosda tashkil etish

O`quv modullari

4.1. Raqobatbardosh kadrlar tayyorlash milliy dasturi.

4.2. Ta`lim tizimi va turlari.

4.3. O`zbekiston Respublikasining ta`lim tug`risidagi qonuni.

Aniqlashtirilgan o`quv maqsadlari talaba bu mavzuni to`la o`zlashtirgandan so`ng:

- Kadrlar tayyorlash milliy dasturining bosh maqsadini tushuntiradi;
- Kadrlar tayyorlash milliy dasturining bosqichlarini sanaydi;
- Kadrlar tayyorlash milliy dasturining bosqichlarini izoxlaydi.
- Ta`lim tug`risidagi qonunni tushuntiradi;
- Ta`lim turlarini sanaydi va izoxlaydi.

Tayanch so`z va iboralar

Kadrlar tayyorlash milliy dasturi, Ta`lim to`grisidagi qonun, ta`lim turlari, ta`lim tizimi, Kadrlar tayyorlash milliy dasturi bosqichlari.

Hozirgi vaqtda mustaqil Respublikamiz oliy maktab tizimida muxim

tarixiy vazifani amalda to'laroq hal etish - mamlakatimiz xalq hujaligiga yuqori malakali va bilimdon mutaxassislar etkazib berish masalasi hal etilmokda. Bu sohada mutaxassislar tayyorlashni rejalashtirishda yaxshi tajribalar orttirilgan, hozir xalq hujaligining hamma sohalarini fan, madaniyat va san'at mutaxassislari bilan ta'minlash rejali ravishda amalga oshirilmokda. Oliy ta'lim xalq xujaligining o'sib borayotgan talabini va kelajagini hisobga olib ish ko'rmokda. Buning uchun oliy o'quv yurtlarining professor - o'qituvchilari ta'limning to'rt shartiga: o'z fanini a'lo darajada bilish, o'z kasbini jon dilidan sevishtirish va talabalarda ham shu fanga muhabbat uyg'otish, sinab ko'rish va amaliy ishlarni hozirgi davr talablari asosida uyushtirish, chuqur bilimga ega bo'lishga rioya qilib kelmokdalar.

Endigi asosiy vazifa tayyorlanayotgan mutaxassislarning sifatini yanada yaxshilashga, ularni ijodiy fikrlovchi va tashabbuskor mutaxassislar qilib tarbiyalashga erishishdan iboratdir. Bu o'z navbatida talabalarga ta'lim berishni tubdan yaxshilash va ularga zamon talablari darajasida tarbiya berishni talab qiladi.

Talabalar oliy o'quv yurti dargohiga qadam quyishlari bilan o'zlari tanlagan sohalar, mutaxassisliklari bo'yicha fanlarning sirlarini sabr-toqat va matonat bilan o'zlashtiradilar. Bunda auditoriyalarda o'tiladigan ma'ruza va amaliy mashg'ulotlarda faollik ko'rsatish hamda mustaqil ishlashni to'g'ri uyushtira olish hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'ladi. Talaba uchun har bir daqiqa g'animatdir.

Oliy o'quv yurtlarining o'quv-tarbiya ishlaridagi asosiy kamchilik sifatida ulgurmovchilik ko'zga tashlanadi. Chunki ayrim talabalar o'z qobiliyatlariga mos keluvchi kasbni to'g'ri tanlay olmasdan tasodifiy ravishda oliy maktablarga joylashib qolib, so'ngra o'qishni tashlab ketishga majbur bo'ladilar yoki uni bir amallab bitiradilar. Co'ngra ular Belgilangann joyga ishga bormasdan engil va «yog'li» ish ahtaradilar.

Hamma ishni, jumladan o'quv jarayonini ham ilmiy asosda tashkil etish murakkab bir jarayon bo'lib, uni amalga tula oshirish uchun fan va texnikadagi so'nggi yangiliklar bilan muntazam ravishda tanishib borish, ishlab chiqarish, madaniyat, san'at va ularning kelajak taraqqiyoti bilan bevosita qiziqish, o'quv-metodik va texnika vositalaridan foydalanishni takomillashtirib borish. O'qish jarayonini to'g'ri rejalashtirish, ilmiy ishlarni rivojlantirib borish, ilmiy-pedagogik mutaxassislarning malakasini oshirib borish, mutaxassislardan o'rinli foydalanish, talaba-larning ish sharoiti, dam olish va har xil jamoat ishlarida ishtirokini mukammallashtirib borish kabilarini o'z ichiga oladi.

O'quv jarayonini muvaffaqiyatli va serunum tashkil etishda o'qituvchi va talabalarining mehnat faoliyatlarini chuqur o'rganish muxim rol o'ynaydi.

O'quv jarayonini ilmiy asosda tashkil etishda uning psixologik-fiziologik tomonini taxlil qilish muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki ma'ruza va amaliy mashg'ulotlarni o'zlashtirishda talabalarining eshitish, ko'rish, fikrlash xususiyatlarining qay darajada ekanligi, bunga muvofiq ravishda sarf bo'ladigan mehnat alohida hisobga olinishi kerak. Shuning uchun o'quv rejasini tuzishda va ulardagi fanlarni dars jadvallariga joylashtirishda har tomonlama o'ylab ish yuritish maqsadga muvofiqdir. O'qitish jarayonining fiziologik asosi sifatida reflekslar va signallar sistemalari haqidagi, oliy nerv faoliyati haqidagi ta'limotga ko'ra, kishida ruxiy o'zgarish va taassurot tashqi muxit natijasida yuz beradi va ichki faoliyat bilan o'zaro bog'lik bo'ladi. Fiziologik va ruxiy jixatdan o'qitish nazariyasining asosi oliy maktabda o'qitish jarayoni uchun ham asos qilib olinadi hamda refleks va signallarga oid yangi tekshirishlar asosida to'ldirib boriladi.

Reflekslar shartli va shartsiz deb ikki turga bo'linadi. Shartli refleks odam va hayvonlarga xosdir. Ularda doimiy ravishda ta'sir va javob reaksiyasi mavjud bo'ladi. Shartli refleks tashqi muxit ta'siri bilan yuz bergan o'zgarishlarga moslashish asosida paydo bo'ladi.

I.N.IIavlov ikkinchi signal sistemasini -kishi xulq-atvorining oliy regulyatori- deb baholaydi. O'quv jarayonida so'zning, nutqning va tilning ma'nosi va ahamiyati g'oyat kattadir. Talabalar so'zlar, simvollar va formulalar yordamida murakkab ilmiy tushunchalarni o'rganadilar. Shunday ekan, o'quv jarayonini ilmiy asosda tashkil etish hozirgi mustaqillik davrida eng muhim va dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

O'zbekiston oliy maktabi tizimi 61 oliy o'quv yurtini, shu jumladan 19 universitet va 42 Universitetni o'z ichiga oladi, ularda 164 ming talaba ta'lim olmokda; 19 universitet O'zbekiston mustaqillikka erishgan dastlabki ikki yilda tashkil topdi. Oliy o'quv yurtlarida ishlayotgan 18,5 ming o'qituvchining 52 foizi fan doktori va fan nomzodlaridir. Oliy ta'limda kadrlar tayyorlashni markazlashtirishdan huqu-qiy yo'nalishga o'tkazish ishi olib borilmokda, o'quv yurtlarining tarmog'i kengaymoda, universitet ta'limi rivojlanmokda. Bilimlarning yangi tarmoqlari bo'yicha kadrlar tayyorlash boshlab yuborildi, oliy maktabni ko'p bosqichli tizimga o'tkazish amalga oshirilmokda. Abiturientlar va talabalarning bilim darajasini test va reyting asosida baholashning ilg'or usullari joriy etilmokda.

Shunga qaramay, sodir etilgan o'zgar-tirishlar kadrlar tayyorlash sifatini oshirish, mamlakatni ijtimoiy - iqtisodiy rivojlan-tirish talablariga muvofiq bo'lishini ta'minlay olmayotganligini O'zbekiston Respublikasi prezidenti Islom Abdug'anievich Karimovning 1997 yil 29 avgust kungi O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi XIX sessiyasida so'zlagan nutqidan anglab olish mumkin.

Oliy Majlisning XIX sessiyasida O'zbekiston Respublikasi prezidenti Islom Karimov «Barkamol avlod - O'zbekiston taraqqiyotining poydevori» mavzusidagi nutqida ta'lim tizimida erishilgan muvofaqqiyat va kamchiliklarni ob'ektiv taxlil qilib berdi.

Avvalo, nutqda ta'lim mazmuni «Əski shurolar zamonidan qolgan ta'lim» tarbiya tizimiga xos mafkuraviy qarashlardan va sarqitlardan butunlay xalos bo'lmaganligi, ayniksa, ijtimoiy - gumanitar yo'nalishdagi fanlar, estetik yo'nalishdagi predmetlarni o'qitish, tarbiyaviy - ma'rifiy faoliyat mazmuni va uni tashkil etish dolzarb muammo ekanligini ta'kidlagan edi.

Umumiy o'rta ta'lim tizimi mazmunining izchilligi, uzluksizligi, o'zviyligi didaktik tamoyillari, o'quvchilarning yosh xususiyatlarini hisobga olish holatlari buzildi.

Bundan tashqari, umumiy o'rta ta'limning davomiylik muddati 10 yildan 11 yilga oshirilganligi sun'iy bo'lib, majburiy o'quv fanlarining soni nihoyatda oshib ketgan, ilmiy jihatdan asoslanmagan edi. Bunda mazkur fanlar mazmuni davlatimizda kechayotgan demokratik va iqtisodiy o'zgarishlar talablariga javob bermadi. Əng asosiy kamchilik u o'sib kelayotgan avlodni mustaqil fikrlashga o'rgatmaslik, mehnat faolyatiga tayyorlamaslik muammosining paydo bo'lganligi edi. 9 - sinfni bitirayotgan o'quvchilar taqdiri e'tiborsiz qoldirildi. Respublikamizda har yili o'rtacha 450 mingdan ortiq o'quvchi 9 - sinfni bitiradi. Ularning 250 minggi (55 %) yuqori sinflarda o'qishni davom ettirardi, 100 mingga yaqini esa hunar - texnika, o'rta maxsus bilim yurtlariga kirib o'qishni davom ettirish imkoniyatiga ega edilar. Natijada 100 mingdan ortiq o'quvchi ta'lim olish yoki mehnat faoliyatiga jalb qilinmasdan qolib ketardi. Na bir aniq mutaxassislikni, na bir kasbni, biror bir mehnat faoliyati kunikmalarini

egallamagan maktab bitiruv-chilari (jumladan 11-sinfni bitirganlar ham) o'z qobiliyati, havas va intilishlariga mos hayotda o'ziga munosib o'rin topolmadi. 9 va 11-sinflar darajasidagi ta'lim dasturlarida uzilish bor edi. Eski ta'lim tizimidagi yuqorida ta'kidlangan bir qator kamchiliklar va muammolarni tugatish istagi yangi «Ta'lim to'g'risidagi konun» ni va «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»ning yaratilishiga sabab bo'ldi.

1997 yil 29 avgustda qabul qilingan ta'lim to'g'risidagi qonunning maqsadi fuqarolarga ta'lim, tarbiya berish, kasb-hunar o'rgatishning huquqiy asoslarini belgilaydi hamda har kimning bilim olishdan iborat konstitutsiyaviy huquqini ta'minlashga qaratilgan bo'lib, ushbu qonun beshta bo'lim va 34 ta moddadan iboratdir.

Milliy dasturning maqsadi - ta'lim sohasini tubdan isloh qilish, uni o'tmishdan qolgan mafkuraviy qarashlar va sarqitlardan to'la xalos etish, yuksak ma'naviy va ahloqiy talablarga javob beruvchi yuqori malakali kadrlar tayyorlash Milliy tizimini yaratishdir.

Milliy dasturning maqsad va vazifalari bosqichma - bosqich ruyobga chiqariladi.

Birinchi boskich (1997 -2001 yillar) - mavjud kadrlar tayyolash tizimining ijobiy salohiyatini saqlab qolish asosida ushbu tizimni isloh qilish va rivojlantirish uchun huquqiy, kadrlar jixatidan, ilmiy - uslubiy, moliyaviy - moddiy shart - sharoitlar yaratish.

Ikkinchi boskich (2001 - 2005 yillar) - Milliy dasturni to'liq ruyobga chiqarish va mehnat bozorining rivojlanishi va real ijtimoiy - iqtisodiy sharoitlarni hisobga ogan hola unga aniqliklar kiritish.

Uchinchi boskich (2005 va undan keyingi yillar) - to'plangan tajribani taxlil etish va umumlashtirish asosida, mamlakatni ijtimoiy - iqtisodiy rivojlantirish istiqbollariiga muvofiq kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirish va yanada rivojlantirish.

«Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» qabul qilingandan beri ta'lim tizimida quyidagi tub o'zgarishlar ruy berdi: «ta'lim to'g'risida»gi qonunga muvofiq ta'lim tizimi mazmunan tarkibi qayta qurildi va qurish tubdan yangilandi.

Kadrlar tayyorlash milliy dasturida belgilangan vazifalarni ruyobga chiqarish, shuningdek, litseylar va kasb - hunar kollej-larini tashkil etish, ularning faoliyatini yo'lga qo'yish va malakali kadrlar tayyorlashni ta'minlash maqsadida Bazirlar Mahkamasi 24 fevral 1998 yilda № 77 sonli qarorini qabul qildi. Mazkur qarorga asosan kasb - hunar kollejlari uchun malakali pedagog va muhandis - pedagog kadrlar tayyorlash bo'yicha bazaviy oliy ta'lim muassasalari sifatida Buxoro oziq - ovqat va engil sanoat texnologiyasi Universiteti, Nizomiy nomidagi Toshkent Davlat Pedagogika Universiteti va bizning Namangan sanoat - texnologiyasi Universitetlarimiz belgilandi hamda Nizomiy nomidagi Toshkent Davlat Pedagogika Universiteti Toshkent Davlat Pedagogika univer-sitetiga, bizning insti-tutimiz Namangan muhandislik - pedagogika Universitetiga aylan-tirildi.

O'zbekison Respublikasida o'rta maxsus kasb - hunar ta'limini tashkil etish chora tadbirlari to'g'risida 1998 yil 13 mayda Bazirlar Mahkamasining 204-sonli qarori qabul qilindi. Mazkur qaror hamda 1998 yil 23 noyabrda qabul qilingan akademik litsey va kasb - hunar kollejlariini pedagog va muhandis - pedagog kadrlar bilan ta'minlash dasturlari Kadrlar tayyorlash milliy dasturini amalga oshirish, bilimlar asoslarini puxta o'rganish, hamda o'rta, maxsus, kasb - hunar ta'limi bo'yicha kadrlar tayyorlash uchun akademik litseylar va kasb - hunar kollejalarini tashkil etish borasidagi dolzarb vazifalarni belgilab berdi.

Mustaqil ishga oid topshiriqlar

Belgilangan o`quv maqsadlariga erishganlik darajangizni aniqlang
Mavzuga oid «Klaster» tuzing

5-Ma`ruza: Oliy ta`lim tarixi

O`quv modullari

5.1. O`zbekiston Respublikasi xududidagi oliy o`quv yurtlari va ularning hozirgi kundagi vazifalari.

5.2. TerDU ning tarixi.

Aniqlashtirilgan o`quv maqsadlari talaba bu mavzuni to`la o`zlashtirgandan so`ng:

- oliy ta`lim sohasidagi davlat siyosati tamoyillarini sanaydi;
- oliy ta`limning asosiy vazifalarini tushuntiradi;
- oliy ta`lim tizimini aytib beradi;
- oliy ta`lim tarixini biladi;
- Universitet va institutni farqlaydi;

Tayanch so`z va iboralar

Oliy ta`lim tamoyillari, oliy ta`limning vazifalari, oliy ta`lim tizimi, bakalavria-tura, magistratura, Universitet, universitet, akademiya, kasb-hunar kolleji, akademik litsey, TerDU tarixi.

Umumiy o`rta, o`rta maxsus, kasb-xunar ta`limi negizidagi oliy ta`lim uzluksiz ta`lim tizimining mustaqil turi bo`lib, «Ta`lim tug`risida»gi hamda «Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi to`g`risida»gi O`zbekiston Respublikasi qonunlariga hamda «Davlat ta`lim standarlari»ga muvofiq amalga oshiriladi.

Oliy ta`lim Davlat ta`lim standartlari (OTDTC) quyidagi vazifalarni bajaradi:

-Kadrlar tayyorlash sifatiga, ta`lim mazmuniga quyiladigan umumiy talablarni;

-Ta`lim oluvchilarni tayyorgarligini zarur va etarli bilim darajasi hamda oliy ta`lim muassasalari bitiruvchilariga quyiladigan umumiy malakaviy talablari:

-O`quv yuklamasining hajmi;

-Ta`lim muassasalari faoliyati va kadrlar tayyorlash sifatini baholash tartibotlari hamda mexanizmini belgilaydi.

-OT DTC - o`quv jarayonini, ta`lim muassasalarining faoliyatini, kadrlar, darslik va o`quv qo`llanmalarini tayyorlash sifatini baholashni tartibga soluvchi tegishli normativ hujjatlar(bakalavriat yo`nalishlari, magistra-tura mutaxassisliklari uchun davlat ta`lim standartlari - o`quv rejalari, o`quv dasturlari va boshqalar) yaratish uchun asos hisoblanadi.

-OT DTC - oliy ma`lumotli kadrlar tayyorlashda idoraviy bo`ysinishdan va mulk-chilik shakllaridan qat`iy nazar, O`zbekiston Respublikasi xududida joylashgan barcha ta`lim muassasalari uchun majburiydir.

OT DTC ga «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» bosqichlarini amalga oshirish jarayonida, shuningdek mamlakat ijtimoiy - iqtisodiy taraqqiyotining istiqbollari, jamiyat ehtiyoji, fan, texnika, texnologiya va madaniyat yutuqlari,

kadrlar tayyorlash borasida jahon tendentsiyalaridan kelib chiqqan holda tuzatishlar va qo'shimchalar kiritilishi mumkin.

Oliy ta'lim sohasidagi davlat siyosati quyidagi tamoyillarga asoslanadi:

- ta'lim va tarbiyaning gumanistik, demokratik mazmunda ekanligi;
- universitet ta'limining ustivorligi;
- o'rta-maxsus, kasbiy, oliy va oliy ta'limdan keyingi ta'limning uzluksizligi va ketma-ketligi;
- ta'lim tizimining dunyoviy mazmunda ekanligi;
- davlat ta'lim standartlari doirasida ta'lim olishning hamma uchun ochiqchiligi;
- bilimdonlik va iste'dodni rag'batlantirish;
- oliy ta'lim, fan va ishlab chiqarish birlashuvini ta'minlash.

Oliy ta'lim muassasalariga qabul barcha uchun(ham grantlar,to'lov - shartnoma bo'yicha) teng huquqlilik, yagona qabul qoidolari va yagona tanlov asosida amalga oshirilib, test sinovlarida eng yuqori ball to'plagan abituriyentlarning davlat grantlari bo'yicha birinchi navbatda qabul qilinish huquqi ta'minlanadi. Qolgan abituriyentlar test ballari reytingi asosida belgilangan to'lov - shartnoma kvotalari doirasida qabul qilinish huquqiga egadirlar.

Tanlov har bir oliy ta'lim muassasi bo'yicha ta'lim yo'nalishlari, o'qitish tillari va shakllariga ko'ra alohida o'tkaziladi.

Test sinovlarini O'zbekiston Respublikasi Bazirlar Mahkamasi huzuridagi Davlat test markazi amalga oshiradi. Test sinovlarini o'tkazishga ma'sul bo'lgan Davlat test markazi vakillari Davlat komissiyasi tomonidan tasdiqlanadi.

Qoraqalpog'iston Respublikasi Bazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari hamda oliy ta'lim muassasalari rektorlari joylarda test sinovlarini o'tkazish uchun zarur sharoitlarni ta'minlaydilar.

Oliy ta'lim muassasalari-yuridik shaxs, ular oliy ta'lim dasturlarini amalga oshiradilar. Amaldagi qonuniy tartibda tashkil etiladilar, o'zlarining ustavi va mazkur Nizom asosida faoliyat ko'rsatadilar.

Oliy ta'limning maqsadi O'zbekistoning yuksak rivojlangan demokratik mamlakatlar darajasida ilmiy-texnikaviy, iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy rivojlanish bilan ta'minlay oladigan, yuksak ma'naviy, madaniy va ahloqiy fazilatlariga ega yuqori malakali raqobatbardosh malakali kadrlar etishtirishdir.

Oliy ta'limning asosiy vazifalari quyidagicha:

- davlat ta'lim standartlariga muvofiq ilg'or, zamonaviy ta'lim va kasb - hunar dasturlari asosida yuqori samarali o'qitishni tashkil qilish va malakali kadrlar etishtirishni ta'minlash;
- ta'lim, fan va ishlab chiqarish birlashuvining amaliy tizimlarini ishlab chiqish va amaliyotga kiritish;
- oliy ta'lim sohasida yuksak rivojlangan mamlakatlar bilan o'zaro foydali hamkorlikni rivojlantirish.

Oliy ta'lim tizimi quyidagilardan iborat:

- davlat ta'lim standartlariga muvofiq ta'lim va kasbiy ta'lim dasturlarini amalga oshiruvchi davlat va nodavlat oliy ta'lim muassasalari;
- ta'limni boshqarish davlat idoralari, hamda ular tasarrufidagi korxona, muassasa va tashkilotlar.

Oliy ta'lim muassasalari mutaxassislar tayyorlashni «Oliy ta'lim yo'nalishlari va ixtisosliklari klassifikatori»ga muvofiq amalga oshiradi.

Oliy ta'lim ikki pog'onaga-**bakalavriat** va **magistraturaga** ega.

Bakalavriatura - ixtisosliklar yo`nalishi bo`yicha fundamental va amaliy bilim beradigan, o`rta maxsus, o`rta kasbiy ta`lim negizida, muddati kamida to`rt yil davom etadigan tayanch oliy ta`limdir.

Bakalavr dasturi tugallanganidan so`ng bitiruvchilarga davlat attestatsiyasi yakunlariga binoan kasb bo`yicha "**bakalvr**" darajasi beriladi va davlat tomonidan tasdiqlangan namunadagi, kasbiy faoliyat bilan shug`ullanish yoki oliy ta`limning keyingi bosqichida o`qishni davom ettirish imkonini beradigan diplom topshiriladi.

Bakalavriat yo`nalishlari bo`yicha Davlat ta`lim standartlari - oliy va o`rta maxsus ta`lim vazirligi tomonidan 2002 yil 28 fevraldagi 54-sonli buyruq bilan tasdiqlangan.

Magistratura - anik ixtisoslik bo`yicha fundamental va amaliy bilim beradigan, bakalavriatdan keyingi, uning negizida ta`lim muddati kamida ikki yil davom etadigan oliy ta`limdir. Magistratura dasturini tugallagan bitiruvchilarga davlat attestat-tsiyasi yakuniga ko`ra ta`lim yo`nalishining muayyan ixtisosligi bo`yicha «**magistr**» darajasi beriladi va tegishli ilova bilan davlat namunasidagi diplom topshiriladi.

Magistratura mutaxassisliklari bo`yicha davlat ta`lim standartlari O`zbekiston Respublikasi Bazirlar Mahkamasining 2001 yil 16 avgustdagi 343- sonli qaroriga asosan tasdiqlangan.

Bakalavriat yoki magistratura bitiruvchisining umumiy savodxonligi va kasbiy tayyorgarlik darajasiga qo`yidagicha talablar quyiladi:

Bakalavr:

- dunyoqarash bilan bog`liq tizimli bilimlarga ega bo`lishi, gumanitar va ijtimoiy -iqtisodiy fanlar asoslarini, joriy davlat siyosatining dolzarb masalalarini bilishi, ijtimoiy muammolar va jarayonlarni mustaqil tahlil qila olishi;atan tarixini bilishi, ma`naviy, milliy va umuminsoniy qadriyatlar masalalari yuzasidan o`z fikrini bayon qila olishi va ilmiy asoslay bilishi, milliy istiqlol g`oyasiga asoslangan faol hayotiy nuqtai nazarga ega bo`lishi
- tabiat va jamiyatda kechayotgan jarayon va xodisalar haqida yaxlit tasavvurga ega bo`lishi, tabiat va jamiyat rivojlanishi haqidagi bilimlarni egallashi hamda ulardan zamonaviy ilmiy asoslarda hayotda va o`z kasb faoliyatida foydalana bilishi;
- insonning boshqa insonga, jamiyatga, atrof muxitga munosabatini belgilovchi huquqiy va ma`naviy mezonlarni bilishi, kasb faoliyatida ularni hisobga ola bilishi;
- axborot yig`ish, sag`lash, qayta ishlash va undan foydalanish usullarini egallagan bo`lishi, o`z kasb faoliyatida mustaqil asoslangan qarorlarini qabul qila olishi;
- tegishli bakalavriat yo`nalishi bo`yicha raqobatbardosh umumkasbiy tayyorgarlikka ega bo`lishi;
- yangi bilimlarni mustaqil egallay bilishi, o`z ustida ishlashi va mehnat faoliyatini ilmiy asosda tashkil qila olishi;
- sog`lom turmush tarzi va unga amal qilish zaruriyati to`g`risida ilmiy tasavvur hamda e`tiqodga, o`zini jismoniy chiniqtirish o`quv va kunikmalarga ega bo`lishi lozim.

Magistr:

- tanlangan mutaxassislik bo`yicha ilmiy - tadqiqotlarni bajarishga shuningdek fan, texnika va texnologiya, iqtisodiyot, madaniyat va san`atning zamonaviy yutuqlarini amaliyotga joriy yo`naltirilgan tayyorgarligiga ega bo`lishi;
- mutaxassislikka oid ilmiy muammolar bilan bog`liq vazifalarni ifodalash va hal etishi, qarorlar qabul qilishi, zarur bilimlar bazasini yaratish va undan o`z kasb faoliyatida foydalana bilishi;- ilmiy tadqiqotlar va mehnatna ilmiy asosda tashkil qilish metodologiyasini bilishi, tadqiqot

natijalarini taxlil qilish va qayta ishlash metodikasini ishlab chiqishi va amalga oshirishi, ilmiy tadqiqot natijalaridan faoliyatning tegishli sohalarida foydalanishga doir amaliy tavsiyalarni ifodalay olishi va taqdim qilishi;

- kasb vazifalarini avtomatlashtirish va kompyuterda modelashtirish metodlarini, eng maqbul echimlar topishning oqilona usullarini egallagan bo'lishi;

- bozor iqtisodiyoti sharoitida ishlab chiqarish va ilmiy jamoalarni boshqarishni ilmiy asosda tashkil qila olishi;

- zamonaviy axborot tizimlaridan foydalaniladigan pedagogik texnologiyalar va interaktiv ta'lim usullarini egallagan bo'lishi lozim.

O'zbekiston Respublikasida oliy ta'lim muassasalarining quyidagi turlari joriy etiladi: univesitet, akademiya, Universitet.

Universitet:

- bilim sohaları va bilim berish yo'nalishlarining keng qamrovi bo'yicha oliy va undan keyingi ta'lim turlari dasturlarini amalga oshiradi;

- fanlar keng qamrovi bo'yicha fundamental va amaliy tadqiqotlar olib boradi;

- bilimlarning tegishli sohaları bo'yicha ilmiy va uslubiy markaz bo'ladi.

Akademiya:

- muayyan bilim sohaları va kadrlar tayyorlash yo'nalishlari bo'yicha oliy va undan keyingi ta'limlarning kasbiy ta'lim dasturlarini amalga oshiradi;

- fan, madaniyat, san'at sohaları bo'yicha fundamental va amaliy tadqiqotlar bajaradi;

- o'z faoliyati sohasida etakchi ilmiy va uslubiy markaz bo'ladi.

Institut:

- odatda, bilimlarning bir sohasi doirasida oliy va undan keyingi ta'limlarning kasbiy ta'lim dasturlarini amalga oshiradi;

- xalq hujaligining ma'lum sohaları uchun mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirishni amalga oshiradi;

- amaliy va shuningdek fundamental ilmiy tadqiqotlar olib boradi.

Oliy ta'lim sohasidagi ta'lim xizmati bozori, davlat tomonidan

boshqariladigan ta'lim muassasalari o'rtasida raqobat muxitini shakllantirish, davlat va nodavlat ta'lim muassasalari rivojlanishini ta'minlash asosiy kasbiy

- ta'lim dasturlarida ko'zda tutilmagan pulli maslahatlar va qo'shimcha hizmatlarni rivojlantirishga asoslanadi.

Oliy ta'lim muassasalarining tashkil etilishi, qayta tuzilishi va to'gatilishi O'zbekiston Respublikasi Baziirlar Mahkamasi joriy etgan tartibda amalga oshiriladi.

Davlat buyurtmasi bo'yicha oliy ma'lumotli va yuqori malakali mutaxassislarni tayyorlash davlatga qarashli va nodavlat ta'lim muassasalariga har yili ajratiladigan davlat ta'lim grantlari asosida amalga oshiriladi. Davlat ta'lim grantlari hisobiga bo'lgan o'qitish harajatlari Respublika byudjeti hisobiga qoplanadi.

Korxona va tashkilotlar buyurtmalari bo'yicha mutaxassislar tayyorlash ta'lim muassasalari tomonidan kontrakt asosida amalga oshiriladi. Korxona va tashkilotlar o'z grantlarini ta'lim va ilmiy muassasalarga ham, bevosita fukarolarga ham ajratishi mumkin. Korxona va tashkilotlarning grantlari bevosita fukarolarga, ularning ta'lim muassasalariga kirish uchun konkursdan o'tish natijalariga ko'ra ajratiladi.

Ta'lim va ilmiy muassasalarining ta'lim jarayoni bilan bog'lik harajatlariga, shu jumladan, o'qituvchilar va ilmiy rahbarlar mehnatiga haq to'lash, moddiy texnik negizni mablag' bilan ta'minlash, rivojlantirish va uni mustahkamlash harajatlari, korxona, tashkilot va fuqarolardan olingan mablag'lar hisobiga ham qoplanadi.

Davlat hamda korxona va tashkilotlar grantlarini ta'lim va ilmiy muassasalar yoki fuqarolarga ajratish tartibi O'zbekiston Respublikasi Bazirlar Mahkamasi tasdiqlagan «Davlatga qarashli va nodavlat ta'lim muassasalari uchun ta'lim grantlari haqida nizom» asosida joriy qilinadi.

Davlat ta'lim grantlari asosida ta'lim olgan mutaxassislardan foydalanish bozor munosabatlari bilan davlat manfaatlarini samarali qushgan holda amalga oshiriladi.

Oliy ta'lim muassasasi tomonidan davlat ta'lim standartlarining bajarilishi hamda kadrlar tayyorlash sifatining nazorati ta'limni boshqarish bo'yicha vakolatli davlat idorasi va O'zbekiston Respublikasi Bazirlar Mahkamasi xuzuridagi davlat test markazining kadrlar tayyorlash sifatini nazorat qilish, pedagogik kadrlar va ta'lim muassasalarini attestatlash boshqarmasi tomonidan amalga oshiriladi.

Oliy ta'lim muassasalarini attestatsiyadan o'tkazish ularning idoraviy buysunish va mulkchilik shaklidan qat'iy nazar O'zbekiston Respublikasi Bazirlar Mahkamasi tasdiqlagan nizom asosida davlat test markazining kadrlarni tayyorlash sifatini nazorat qilish, pedagogik kadrlar va ta'lim muassasalarini attestatsiyalash boshqarmasi tomonidan amalga oshiriladi.

Oliy ta'lim muassasalarini akkredita-tsiyalash tartibini O'zbekiston Respublikasi Bazirlar Mahkamasi joriy qiladi.

Davlatga qarashli oliy ta'lim muassasasini ta'sis etish haqidagi dalolatnoma unga ta'lim faoliyatini olib borish huquqini beradi.

Nodavlat oliy ta'lim muassasasi ta'lim faoliyatini olib borish huquqiga davlat attestatsiyasidan o'tgan paytdan boshlab ega bo'ladi va amaldagi tartibda attestatsiyadan o'tkaziladi.

Oliy ta'lim muassasasi davlat akkredita-tsiyasidan attestatsiya natijalari bo'yicha mahrum qilinishi mumkin.

Hozirgi, O'zbekiston Respublikasining davlat mustaqilligi mustahkamlanib borayotgan bir davrda, kadrlar tayyorlash milliy dasturini amalga oshirish yo'lida oliy o'quv yurtlarining o'rni yanada beqiyos bo'lib, ular ichida Termiz Davlat Universiteti bugungi kunda o'zining zamonaviy moddiy va o'quv-laboratoriya bazasi hamda yuksak ilmiy-pedagogik salohiyati bilan ajralib turadi.

Universitet Surxon vohasining go'zal shaharlaridan biri bo'lgan va poytaxt Toshkentdan 750 km uzaklikda joylashgan. 1992 yil 28 fevralda Termiz Davlat Pedagogika Universiteti negizida respublikaning yirik o'quv maskanlaridan biri Termiz davlat universiteti tashkil etildi.

Universitetdagi 42 ta kafedra, 30 dan ortik ilmiy va o'quv-laboratoriyalarida 560 nafar yukori malakali pedagog-olimlar, shu jumladan 29 nafar Fan doktorlari va 176 nafar Fan nomzodlari yoshlarga mutaxassislik va ilm sirlarini urgatomkdalar.

Oliy ta'limning kunduzgi va sirtqi bo'limda ta'lim olayotgan talabalarning chuqur nazariy bilimlar olishlari va zamonaviy kasb-hunar kunikmlariga ega bo'lishlari uchun univetsitetda barcha zarur shart-shroitlar yaratilgan.

Pedagogika va musika fakultetida BTU va lotin yozuvi, Maktabgacha va oila ta'limi, Jaxon xalklari pedagogikasi, Musika va tasviriy san'at kafedralari faoliyat kursatib, pedagogikasi va psixologiyasi buyicha kata ilmiy tajriba va meros tuplangan. Musika va tasviriy san'at xam Yangi yunalish sifatida kiritilib, unda milliy, xususan Surxondaryo madaniyatining ilgor yunalishlarida sabok beriladi.

Fizika-matematika fakulteti – 1971 yilda tashkil topgan. Xozir bu erda matematik taxlil, Differentsial tenglama va geometriya, Xisoblash matematikasi va informatika, Umumiy fizika, Nazariy fizika kafedralari va boshka laboratoriyalarda 4 nafar Fan doktori, 30 nafar Fan nomzodlari muxim soxalar buyicha ilmiy izlanishlar olib bormokdalar.

Tabiiyot geografiya fakulteti-1988 yilda tashkil etilgan bulib, unda Geografiya, Zoologiya, tibbiy bilim asoslari, Botanika, Kishlok xujaligi asoslari kafedralari faoliyat kursatmokda.

Fakultetni tugatgan yoshlarimiz geografiya, biologiya, agrokimyo va tuproqshunoslik ixtisosliklari buyicha bakalavr makomini oladilar.

Iqtisodiyot va moliya fakultetida- fakultetda Iktisodiyot nazariyasi, Milliy iktisodiyot va xalkaro iktisodiyot munosabati, Iktisodiy kibernetika va buxgalteriya, Iktisodiy ta'lim pedagogikasi kafedralari faoliyat kursatmokda. Fakultetda Agroiktisodiyot, Makroiktisodiyot kabi soxalar buyicha bakalavr mutaxassisliklari tayyorlanmokda. Shuningdek, moliya, kredit, solik, tarmoklar menejmenti va shunga yondosh ixtisosliklar buyicha keng kulamdagi mutaxassislar tayyorlanmokda. Fakultet tarkibida Moliya, Bank ishi va solik, Axborot texnologiyasi kafedralari mavjud. Fakultet ba'zasida 2 ta kompyuter sinfi, Internet tarmogi, Moliya-menejmenti maslaxat markazi, Moliyachilar klubi faoliyat kursatmokda. Talabalar moliya, solik va solikka tortish, bank ishi buyicha chukur va keng bilimlar olishi uchun barcha sharoitlar yaratilgan.

Muxandis – texnika va kimyoviy texnologiya fakulteti viloyat korxona va tashkilotlari uchun avtotransport, yul kurilishi buyicha bakalavr injenerlarni tayyorlaydi. Fakultetda Avtomobil transporti, kurilish muxandis kafedralari, kompyuter sinfi, avtoxaydovchilar maktabi faoliyat kursatadi. Shuningdek, ekologiya, Anorganik va analitik Kime, Umumiy va biorganik Kime kafedralari, fizik va kolloid Kime, biokimyo, atrof muxitni muxofaza kilish laboratoriyalari ishlab turibdi.

Filologiya fakulteti- eng yirik bulinmalardan biri bulib, bu erda uzbek va rus tillari va adabiyoti ixtisosliklari buyicha bakalavr ukituvchilar, filologlar, ilmiy-pedagog mutaxassislar tayyorlanadi. Fakultetda Uzbek tilshunosligi, Uzbek adabiyoti, Umumiy va rus tili, Rus va chet El adabiyoti, Fakultetlararo rus tili kafedralari mavjud. Shuningdek, ingliz filologiyasi, Fakultetlararo ingliz tili, Nemis filologiyasi, Fakultetlararo nemis tili kafedralari mavjud bulib, bu erda tarjimonlar, litseylar, kasb-xunar kollejlari va urta maktablar uchun ingliz va nemis tili ukituvchilari tayyorlanmokda. Frantsuz tili ikkinchi til sifatida ukitilmokda.

Tarix fakulteti- tashkil etilganiga 30 yildan oshdi. Fakultetning Uzbekiston tarixi, Jaxon tarixi, Arxeologiya va etnografiya kafedralarida shu soxalar buyicha respublikamiz uchun juda zarur bulgan yosh mutaxassislar tayyorlanmokda. Shuningdek, madaniyatshunoslik, Falsafa, Xukukshunoslik, Uzbekistonda demokratik jamiyat kurish nazariyasi, Psixologiya kafedralari bulib, unda ijtimoiy bilimlar, xukuk, psixologiya fanlari buyicha etuk professor – ukituvchilar faoliyat kursatishmokda.

Fakultet bazasida Arxeologiya va etnografiya muzeyi tashkil etilgan. Termiz shaxri Arxeologiya xamda Meros muzeylarining tashkil topishida xam fakultet tarixchi olimlarining xizmatlari kattadir.

Kasb ta'limi fakulteti- 1984 yil tashkil etilgan bo'lib, bu bulinmada Mexnat ta'limi, Agroinjeneriya va kimyoviy texnologiya, Ijtimoiy – iqtisodiy ta'limi kafedralari faoliyat kursatmokda. Fakultetda milliy an'anaviy xunarmandchilik buyicha markaz va tugaraklar ishlab turibdi.

Jismoniy madaniyat fakultetida- Jismoniy tarbiya nazariyasi va metodikasi, Sport turlari metodikasi, Sport uyinlari kafedralari faoliyat kursatib, unda ta'lim muassasalari uchun jismoniy tarbiya ukituvchilari, sport murabbiylari, trenerlar, xakamlar tayyorlanadi. Fakultetda kuplab xalkaro va respublika mikiyosidagi sportchilar, chempionlar tayyorlangan.

Mutaxassislar malakasini oshirish va kayta tayyorlash fakulteti-viloyat Akademik litsey va kasb-xunar kollejlari umumta'lim va pedagogika fanlari pedagoglarining malakasini oshirish va kayta tayyorlashni amalga oshiradi.

Bu fakultetda xar yili 200 ga yakin mutaxasis uz bilimi va kasbiy maxoratini oshirishadi.

Fakultet - o`quv yurtining o`quv - ilmiy va ma`muriy tarmog`i hisoblanib, Kadrlar tayyorlash Milliy dasturiga muvofiq tegishli ta'lim yo`nalishlari va

mutaxassisliklari bo'yicha talaba, aspirant va doktorantlarni tayyorlash hamda tegishli sohalarning rahbar xodimlari va mutaxassislari malakasini oshirish, shuningdek, kafedralarning ilmiy-tadqiqot ishlarini muvofiqlashtirish ishlari bilan shug'ullanadi.

Fakultet mutaxassislar tayyorlashni ishlab chiqarishdan ajralgan holda va ajralmagan holda amalga oshiradi. O'quv ishlarini tashkil etish uchun ayrim o'quv shakllari yoki bakalavriatning ayrim ta'lim yo'nalishlari bo'yicha fakultet tarkibida bo'limlar tashkil etilishi mumkin.

Fakultet, odatda, o'z tarkibiga kiritilgan bakalavriat ta'lim yo'nalishlariga (magistratura mutaxassisliklariga), taalluqli kafedra va laboratoriyalarni, shuningdek, oliy o'quv yurti tarkibidagi, lekin faoliyat mazmuni bo'yicha fakultet profiliga yaqinroq bo'lgan boshqa kafedralarni birlashtiradi. Fakultet oliy o'quv yurti ilmiy kengashining qarori asosida rektorning buyrug'i bilan tashkil etiladi. Kunduzgi bo'lim fakulteti talabalar soni 150 dan ortiq bo'lganda, sirtqi bo'lim fakulteti talabalar soni 300 dan kam bo'lmaganda tashkil etiladi.

Kafedra esa, oliy o'quv yurti(fakultet) tuzilishidagi, bir yoki bir necha turdosh fanlar bo'yicha o'quv, uslubiy va ilmiy - uslubiy ishlarni amalga oshiruvchi, talabalar orasida ma'naviy - ma'rifiy ishlarni olib boruvchi, shuningdek, ilmiy va ilmiy-pedagogik kadrlar tayyorlovchi hamda ularni malakasini oshiruvchi, asosiy tarmoq hisoblanadi.

Kafedra, oliy o'quv yurti ilmiy kengashining qarori asosida rektorning buyrug'i bilan tashkil etiladi va tugatiladi. Kafedraning tuzilishi va uning shtatlari oliy o'quv yurtining rektori tomonidan tasdiqlanadi.

Universitetda hozirgi kunda 180 dan ziyod professor-o'qituvchilar, shu jumladan 100 ta fan doktorlari va nomzodlari, professor, dotsentlar talabalarga ta'lim-tarbiya bermoqdalar.

Universitet olimlari fan-texnika taraqqiyoti uchun dolzarb hisoblangan yo'nalishlarda, shu jumladan oziq-ovqat resurslarini rivojlantirish, yangi qurilish materiallari yaratish, bino va inshootlarni zilzilabardoshlilikini oshirish, xalq hujaligida quyosh energiyasidan foydalanish, qishloq hujaligi ekinlari hosildorligini oshirish kabi mavzularda nazariy va amaliy ahamiyatga molik ilmiy-tadqiqot ishlarini olib bormoqdalar. Bir qator ilmiy ishlanmalar ishlab chiqarishga joriy etilgan bo'lib, hozirgi kunda ular o'zlarining munosib xissalarini qo'shmoqdalar.

Universitetdagi o'nlab zamonaviy o'quv va ilmiy laboratoriyalar, kompyuter markazi, kutubxona, elektron kutubxonalar, talabalar o'yi, bosmaxona, aksariyat fakultetlar qoshida kompyuter sinflari va boshqalar talabalarning zamonaviy bilim olishlari uchun xizmat qilmoqda. Ochiq va yopiq turdagi sport-sog'lomlashtirish markazlari majmualari, tennis kortlari, 400 o'rinli «Oltin davr» oshxonasi va viloyatning xushmanzara gushalarida joylashgan 2 ta dam olish maskanlari ham barkamol mutaxassislar tayyorlashning muxim omillaridan bo'lib hisoblanadi.

M.C. Hozirda faoliyat ko'rsatayotgan fakultetlar va ular qoshidagi ta'lim yo'nalishlarni aytib bering.

Mustaqil ishga oid topshiriqlar

Belgilangan o'quv maqsadlariga erishganlik darajangizni belgilang.
Mavzuga oid «Cenkveyn» tuzing.

6-ma`ruza: Mustaqil ishlashni tashkil etish.

O`quv moduli

1. Mustaqil ta`limni tashkil qilish asoslari.
2. Fan olimpiadalariga tayyorlanish va ishtirok etish.
3. Mustaqil ta`limni rasmiylashtirish.
4. Shaxsiy ish rejalari tuzish qoidalari, vaqtni to`g`ri taqsimlash.

Aniqlashtirilgan o`quv maqsadlari talaba bu mavzuni to`la o`zlashtirgandan so`ng:

- Mustaqil ta`limga ta`rif beradi;
- Mustaqil ta`limni maqsadini tushuntiradi;
- Ilmiy tadqiqot ishlarini izohlaydi;
- mavzuga oid «Klaster» tuzadi.

Talabalarning mustaqil ta`lim olishi (TMTO) murakkab tushincha bo`lib, unga yaxlit ta`rif berib bo`lmaydi. Chunki bu erda gap o`qituvchi va talaba o`rtasidagi bevosita va bilvosita munosabatni tashkil qilish haqida ketganda. Bunda talabaning mustaqillik darajasi qator omillar bog`liq holda turlicha bo`lishi mumkin.

Sodda ta`rif berilsa TMTO deganda, ajratilgan vaqt (o`qituvchining yillik yuklamasiga kiruvchi) me`yorida o`qituvchi topshirig`i asosida (uning ishtirokisiz) talaba tomonidan amalga oshiriladigan mustaqil ish tushiniladi.

Uning asosiy maqsadi talabalarning aqliy faolligini oshirish, berilgan topshiriqni taxlil qilishga va eng maqbul echimni topishga o`rgatishdan iboratdir. Har bir talabaning iqtidori va imkoniyatiga qarab mustaqil ishlash uchun beriladigan topshiriq-ning shakli va mazmuni o`zgartirib boriladi.

TMTO(Talabalarni mustaqil ta`lim olishi) - bu:

1. O`quv-tarbiyaviy jarayonning tarkibiy qismlaridan biridir.
2. Talabaning darsda va darsdan tashqari vaqtlarda mustaqil ta`lim olishi bo`yicha o`quv jarayonini tashqi ko`rinishlaridan biridir.

Har bir fanning xususiyatlariga qarab mustaqil ta`limning qo`yidagi shakl va uslublaridan foydalanish mumkin.

Mustaqil ta`limning dastlabki bosqichida har bir fan bo`yicha iqtidorli talabalarni tanlab olib, shu fanga qiziquvchi, fanni chukur egallashni xoxlovchi, bilimli, zukko talablar tanlab olinib kafedra tomonidan tayyorlangan maxsus dastur asosida olimpiadalarga tayyorlanadi. Bunga fan qismlarini chuqur o`rganish, dasturga kirmagan qismlarni o`zlashtirish, fan bo`yicha murakkab masalalarni echish, oldingi olimpiadalarda tushgan misol va masalalarni echish, olimpiada uchun misol va masalalar tuzish kabilarga alohida e`tibor qaratiladi.

Talabaning fakultet bosqichidan boshlab, toki respublika bosqichigacha fan olimpiadasida ishtirok etishi, uning mustaqil ta`lim olishini keskin jadallashtiradi.

Olimpiadalarda barcha kurs talabalari ishtirok etishlari mumkin. Chunki ular gumanitar, umum-ilmiy (umum-muxandislik), va maxsus fanlardan o`tkaziladi. Bu musobaqada mazkur fanni joriy yilda o`rganayotgan yoki o`tgan o`quv yilida

o`rgangan talabalar ishtirok etadilar.

T M T O ga jalb qiluvchi eng ommaviy shakllardan biri bu fan olimpiadasidir. Shuning uchun undan har bir fanda foydalanish darkor.

Olimpiadaning respublika turida faxrli o`rinlarni egallagan talbalar va ularning rahbarlari moddiy va ma`naviy rag`batlantiriladilar, ularning Universitetdagi reytinglari ortadi va qo`shimcha imtiyozlar belgilanadi. Shuning uchun ham TMTO ning olimpiada shakli yildan - yilga rivojlanib bormokda.

Har bir o`quv yili va bahorgi semestr boshlanishi oldidan o`tkaziladigan kafedra yig`ilishida mavjud fanlar bo`yicha mustaqil ta`limni shakli va mazmuni tanlanadi va muhokama qilib, tasdiklanadi.

Mustaqil ta`lim uchun ajratilgan soatlar fan qismlarining katta-kichikligi, talabalar tomonidan o`zlashtirish darajasi, semestr davomida dastur asosida taqsimlanishiga qarab tanlanadi. Unda TMTO bo`yicha yuqorida sanab o`tilgan (yoki boshqa) shakl va mazmunlarning biri yoki bir nechta (talabalarning imkoniyatiga qarab) kiritilishi mumkin.

Kafedra yig`ilishida tasdiqlangandan so`ng fan bo`yicha ma`ruza va amaliy mashg`ulot olib boruvchi professor-o`qtuvchilar birgalikda mustaqil ta`limni semestr davomida o`tkazish kalendar rejasini tuzadilar. Ushbu kalendar reja amaliy mashg`ulot (seminar mashg`uloti)lari uchun tuzilgan kalendar reja davomida aks etadi. Unda har bir mustaqil ta`lim mavzusi bo`yicha soatlar taqsimoti ko`rsatiladi va semestr mobaynida ularni o`tkazilganligi haqida professor-o`qituvchi muddati va sanasini qo`yib, imzo chekadi.

Kafedra mudiri mustaqil ta`lim soatlarini fan standartiga va ishchi rejasiga mostligini, soatlar to`g`ri taqsimlanganligini ko`rib chiqadi va imzo bilan tasdiqlaydi.

Fan bo`yicha ma`ruza, amaliy (seminar) mashg`ulot va mustaqil ta`lim uchun kalendar reja bo`yicha mashg`ulotlar to`la bajarilib, guruh xaftalik qaydnomalarida aks etganligini o`quv ishlari bo`yicha dekan muovini imzosi bilan tasdiqlaydi. Mustaqil ta`lim uchun fanlar ajratilgan soatlar mikdori kafedraning «O`quv soatlari fondi» (dasturxon)da va professor-o`qtuvchining shaxsiy ish rejasida alohida «Mustakil ta`lim» grafasida keltiriladi.

O`quv yili uchun o`qituvchining shaxsiy ish rejasi «O`quv metodik ishlari», «Ilmiy tadqiqot ishlari», «Tashkiliy metodik ishlari» bo`limlarida mustaqil ta`limni tashkil etish va o`tkazish, takomillashtirish muammolari, mustaqil ta`lim bo`yicha talabalar bilimni baholash mezonlari kabi mavzular kiritilishi lozim.

Fan uchun talabalar bilimni baholash mezonini tuzayotganda mustaqil ta`limga ajratilgan qismlar bo`yicha talaba olishi mumkin bo`lgan ballarni albatta ko`rsatish lozim. Ta`lim yo`nalishlari Davlat standartlarida o`quv mashg`ulotlari (ma`ruza, amaliy mashg`ulot, laboratoriya ishi, seminar mashg`uloti) uchun ajratilgan soatlarga nisbatan mustaqil ta`lim soatlari o`rtacha 20-25% ekanini hisobga olib, mustaqil ta`lim bo`yicha talaba bilimni baholashga joriy va oraliq baholashda ballar ajratish kerak. Masalan, joriy baholashdan bittasi va oraliq baholashdan bittasini (umumiy ballning 20-25% atrofida) ajratish mumkin. Albatta, ushbuni bajarishda mustaqil ta`limga ajratilgan fan bo`lagining hajmi, topshiriqlar mazmuni, ularni bajarish muddatlari va fanning o`ziga xos xususiyatlari kabilarni e`tiborga olishi lozim.

Mustaqil ta`limni tashkil etish, bajarish, ilmiy-metodik jihatdan

takomillashtirish, yangi baholash mezonlarini joriy etish kabi masalalarni kafedra majlislarida, fakultet ilmiy-metodik kengashlarida muhokama qilib borish talab etiladi.

Talabalarning mehnat tartibi o`qishdan tashqari vaqtda mustaqil ishlashdan ham iborat, chunki o`qish vaqtida qilingan mehnat dars jadvali bilan belgilangan bo`ladi. Talabalik hayotining tajribasi shuni ko`rsatadiki, yaxshi o`qish uchun har bir kishi o`rta hisobda kundalik 6 soat darsdan so`ng 4-5 soat mustaqil ishlashi kerak. Xolbuki, umumta`lim o`rta maktablarida o`y vazifasini bajarish uchun 3-4 soat vaqt belgilangandir.

Ish rejasini tuzishda uxlash(sutkasiga 7-8 soat), muntazam ovqatlanish (uch-to`rt marta), dam olish (faol va sust) uchun etarli vaqt

ajratish zarur. Calomatlikni yaxshilab borish maqsadida har kuni jismoniy mashqlar va badan tarbiyasiga rioya qilib organizmni chiniqtirish uchun ham vaqt ajratish tavsiya etiladi. Ba`zi yoshlarda o`z kuchi va imkoniyatiga xaddan tashqari ishonib yuborishi mayli ko`zga tashlanadi. Qindan ham malum bir vaqt moboynda tana toliqishlarni sezdirmay, o`z vaqtida uxlamay va ovqatlanmay, jadal sarflangan quvvatning o`rnini o`z ichki imkoniyatlari hisobiga qoplab turadi. Eshlikdan tananing bunday imkoniyati katta bo`ladi. Biroq bu resurslar cheksiz emas. Masalan, shu narsa aniqlanganki, ertalab nonushta qilmay, darsga kelgan talabalar masala echishda ikki yarim baravar ko`p xato qilsa, to`yib uxlamagan talabalarda chet tillardan tarjima qilishda tezkarlik va aniqlik uch baravar pasayadi. Xullas, hamma narsa bir me`yorda amalga oshirib borilishi lozim.

Agarda miyaga dam bermay, qattik mehnat qilaversangiz, u vaqtda sizning asab xujayralaringiz va butun asab sistemangiz charchab qoladi. Bunday odamga oddiy gaplar ham salbiy ta`sir etadigan bo`lib koladi. Bunday vaqtda har qanday ishni tuxtatish va miyaga dam berish zarur. Umumiy madaniy o`sishtirish dam olishni ham esdan chikarmaslik zarur. Teatr, kino, she`rxonlik, kitob mutolaasi, istirohat bog`larida sayr qilish, tabiat manzaralaridan baxra olish, sayrlarda bo`lish - bularning hammasi unumli mehnat qilishda ajoyib yordam beruvchi omillardir. Chunki bu tadbirlar asabni etarli darajada ta`minlashga yordam beradi.

Mustaqil ishlashni namunali tashkil etish ko`p ilmiy - nazariy materiallarni o`zlashtirish, bilimdon bo`lish va etuk mutaxassis bo`lib etish uchun zamin hozirlaydi.

Baqt byudjeti va bo`sh vaqtdan samarali foydalanish nafaqat o`quv jarayoni bilan shug`ullanuchi kishilar uchun, balki barcha kishilar uchun ham ahamiyatga egadir. Chunki vaqtdan tug`ri foydalanish bajariladigan ishning unumli va sifatli bo`lishini ta`minlaydi.

Baqtni to`g`ri ta`minlash va mustaqil ishlashni oqilona tashkil etish, mustaqil ishlashni shakl va metodlarini aniqlab olish muxim ahamiyat kasb etadi.

Oliy o`quv yurtlarida o`quv jarayonini ilmiy asosda tashkil etishning muxim tarixiy vazifani amalda tularoq xalq etish - mamlakatimiz xalq hujaligiga yuqori malakali va bilimdon mutaxassislar etkazib berish masalasi hal etilmoqda. Bu sohada mutaxassislar tayorlashni rejalashtirishda yaxshi tajribalar orttirilgan, hozirgi xalq xujaligining hamma sohalarini fan, madaniyat va san`at mutaxassislari bilan ta`minlash rejali ravishda amalga oshirilmokda.

M.C. Talabalarining rasionalizatorlik va ijodkorlik deganda nimani tushunasiz?

Mustaqil ishga oid topshiriqlar

Belgilangan o`quv maqsadlariga erishganlik darajangizni tekshiring.
Mavzuga oid «Klaster» tuzing.

7-ma`ruza: Kitob ustida ishlash va uning bosqichlari.

O`quv modullari

7.1. Kitob-bilim manbai.

7.2. Kitob bilan ishlash va uning bosqichlari.

7.3. Konspekt va tezislarni tayyorlash.

Aniqlashtirilgan o`quv maqsadlari talaba bu mavzuni to`la o`zlashtirgandan so`ng:

- Kitob ustida ishlashni biladi;
- Kitob bilan ishlash bosqichlarini sanaydi;
- Konspekt va uning ahamiyatini tushuntiradi;
- Kitob tushunchasiga ta`rif beradi;
- Mavzuga oid «Senkveyn» tuzadi.

Tayanch so`z va iboralar

Kitob, konspekt, tezis, kitob bilan ishlash, kitob bilan ishlash bosqichlari, bibliografiya.

Kitob-bilim manbai, ziyo chashmasi va tarbiya vositasidir. Davlat arboblari hamda mashhur adiblarimiz ham kitobning xalqning og`irini engil qiladigan asosiy omil, ilm-fanni egallashda «kalit» deb qarab keldilar. Ushbu borada M. Gorkiyning quydagi fikrini keltirish o`rinlidir: «Kitobni sevsangiz, u og`iringizni engil qiladi, tafakkur, xissiyot va alg`ov-dalg`ovli voqealarning buronli chigallarni echishda do`st sifatida yordam beradi.

Hayotda kitobga eng qimmatli narsa deb qaraladi va uni ehtiyot qilib

saqlanadi. Chunki kitob har bir kishining yo`ldoshidir.

O`tmishda ham kitobga qiziqish katta bo`lgan. Bu jihatdan Xorazimlik Yo`ldosh ota Sobirov xikoyasi qiziqarlidir. Berdimurod ismli dehqon Xorazmning uzok Durmon qishlog`ida Xivaga kelib qolib, Raximberdi degan kishinikida mehmon bo`ldi. Berdimurod bobo mezbonning hikoya va g`azalni o`qib berishiga qiziqib qoldi, o`y egasidan uning qanaqa kitob ekanligini suradi, xuddi bir yangi olamga kirib qolganday bo`ladi.

Mezbon kitobning Fuzuliy, Ogaxiy kabi ulug` zotlarning, xikoya va g`azallari ekanligini aytadi. U o`z fikrini davom ettirib, o`zim hattot bo`lganligim uchun qo`lda ko`chirdim, deydi. Mehmon, ya`ni Berdimurod bobo, unday bo`lsa yana kuchirib olasiz deb, kitobni berishni iltimos qiladi.

Berdimurod bobo minib kelgan saman otini kitob evaziga qoldirib qishlog`iga yayov qaytadi. Uning Xivadan qishloqqa kitob olib kelganligi haqidagi xabar bir zumda hamma yoqqa tarqaladi. Kechqurun qishloq axli uning o`yiga yig`ilishib, bitta savodli kishini topadilarda, to tong otguncha g`azal, xikoya va xikmatli so`zlarni tinglaydilar.

Kitob har bir kishining do`sti bo`lib qoldi, u yoshlarimizning g`oyaviy-siyosiy jihatdan, did va farosatini tarbiyalashda g`oyat muxim ahamiyat kasb etmokda. Kitob tarbiyachi va ma`naviy ko`makdosh ahamiyatiga ega ekan, uni o`z ko`zimiz qorachig`idek asrashimiz, e`zolashimiz lozim.

Mamlakatimiz aholisining shaxsiy kutubxonalariga ega bo`lishlariga qaramasdan, ular umumiy kutubxonalardan ham muntazam samarali foydalanadilar.

O`quvchi xulqiga baho quyilganda ham bu hisobga olinadi. Bu, so`zsiz, foydali va tarbiyaviy ahamiyatga egadir. Oliy va o`rta maxsus bilim yurti talabalariga nisbatan ham qandaydir rag`batlantirish yo`llarini izlab topish va undan unumli foydalanish yaxshi natijalar berishi tabiiydir.

Shu maqsadda kitobni sevish va undan foydalanish yuzasidan talabalarning kurslararo, fakultetlararo ko`riklarini o`tkazib turish, eng yaxshi kitob targ`ibotchi talabalar uchun mukofotlar tashkil qilish va boshqa shu kabi tadbirlardan foydalanish bu sohadagi ishlarni yanada yaxshilashga yordam beradi. Kitobsevarlar jamiyati va uning turli joylardagi vakillari katta tashabbuskorlik ishlarini olib borishlari lozim.

Tarixning guvoxlik berishicha, ota-bobolarimiz o`tmishda kitobga nondek aziz deb qaraganlar. Qolaversa, bir kitob yuzaga kelgunga qadar qanchadan-qancha mehnat sarf etiladi. Muallif kunni tunga ulaydi, zahmat chekadi, uni o`z farzandidek ardoqlaydi, uni qayta-qayta ishlaydi. Masalan, ba`zi bir ma`lumotlarni ko`rib chiqaylik, Firdavsiy o`zining mashxur «Shoxnoma» asarini 30 yil aziyat chekib yozadi. B. I. Dalning «Tolkoviy slovar jivogo velikoruskogo yazika» asarini 53 yillik mehnati tufayli yuzaga keltirdi. Maxmud Qoshg`ariy «Devonu lug`atit turk» asarini 15 yil ichida yozib tugalladi. D. I. Mendeleev ximiya elementlarining davriy sistemasi ustida 8-10 yil ishladi. Bunday misollarni madaniyatimiz tarixidan ko`plab keltirish mumkin.

Talabalik hayotiga to`la kirishish uchun darslik va o`quv qo`llanmalaridan foydalanish yo`llarini, ularni metodikasini bilib o`zlashtirib olish lozim. Kitob ustida ishlash bir qancha bosqichlarni o`z ichiga oladi. Ularning muximlari qo`yidagilardan iboratdir.

Kitob bilan ishlashning birinchi bosqichida adabiyotlar tanlanadi, ya'ni zaruriy kitoblar jamlanadi. Cizga birinchi kurs talabalariga o'qitiladigan har bir fan yuzasidan tuzilgan o'quv dasturida ko'rsatilgan asosiy va qo'shimcha adabiyotlar ruyhati hamda har bir o'qituvchining u yoki bu masala yuzasidan chop etilgan yangi asarlarni o'qish lozimligi haqidagi ko'rsatmalari bu masalani hal etishda yaqindan yordam beradi.

Shu bilan birga, har bir student o'zini qiziqtirayotgan masalalarga taalluqli adabiyotlarni mustaqil ravishda topishga odatlanishi kerak. Adabiyotlarni mustaqil ravishda tuplash uchun qo'yidagilarni puxta egallab olishlari tavsiya etiladi.

Bibliografiya kitoblarni aniq hisobga oladi, matbuotda e'lon qilingan asarlarni guruxlarga ajratadi, tasnif qiladi, ko'p xollarda ularga qisqacha tavsiflar beradi. Bibliografiyani tuzishdan maqsad kitobxonlarga chop qilingan asarlarni ma'lum qilish, zarur kitobni qidirib topishda unga ko'maklashishdir. Bugungi ko'rsatmalar, ruyhatlar, kataloglar tuziladi, sharxlar beriladi va xulosa chiqariladi. Ularda nashr qilingan asarlar ruyhati beriladi.

Shunday qilib, zarur kitobni tanlash va qidirib topishda bibliografiya va bibliografik manbalarning ahamiyati g'oyat kattadir.

Kitob ustida ishlashning ikkinchi bosqichida kitob o'rganishga va taxlil qilishga kirishiladi. Bu bosqich ham o'z tartib va qoidasiga ega. Kitobning u yoki-bu yog'ini varaqlab ko'riladi. Oldin muallif nomi, kitobni qanday atalishi, qaerda va qachon nashr etilganligi haqida qimmatli axborot beradi. Titul varak bilan tanishib chiqqandan so'ng, kitobning mundarijasini sinchiklab o'rganish zarur. Chunki mundarijada kitobning rejasi, qisqacha mazmuni aks etgan bo'ladi.

Kitobni shu tarzda ko'zdan kechirib bo'lgach, uning so'z boshisi yoki muqaddima qismini o'kib chiqish kerak. Ular muallif yoki mutaxassis kitobida ilgari surilgan g'oyani tushuntirib beradi, hal qilinayotgan muammoning mohiyati va uning qanday echilishi, uni hal qilishga yondashish yo'llari xususida qisqacha axborot beradi.

IQoridagi ishlarni bajarilgandan so'ng, qushimcha materiallarga jiddiy e'tibor berish lozim bo'ladi. Ularning izohi, nomi, fan ko'rsatkichlari bibliografiyadan iborat bo'lib, u kitobdagi materiallarni to'liq o'rganish uchun qulaylik tug'diradi. Kitobni bir marta ko'zdan kechirib chiqqaningizdan so'nggina uni sinchiklab varaqlab jiddiy o'qishga kirishish lozim.

Kitob ustida ishlashning uchinchi boskichi.

Bu bosqichda o'qilgan adabiyotlarning mazmuni qisqacha yozib boriladi. O'rganilayotgan masalada kitobning qanchalik muxim yoki muxim emasligi hisobga olinib, uni nechog'lik tafsilot bilan yozib olish lozimligi aniqlanadi. O'qilgan kitoblarning mazmuni qisqacha yozib boriladi.

O'qilgan kitoblarning mazmunini yozib olishning bir necha xil shakllari mavjud. Yozuvni kitob ustida ishlashning xulosalovchi qismi deb baholash lozim. Kitobning yaxlit bir bo'limi oxirigacha o'qib bo'lingandan so'ng, material qiyomiga etkazilgach, yaxshilab tushunish uchun konspekt yozish tavsiya etiladi.

O'qish jarayonida yozib borish tekstning mazmunini to'laroq o'zlashtirib olishga yordam beradi. Natijada ko'z bilan ko'ringan narsa harakat bilan mustahkamlanadi. O'qish davomida yo'l-yo'lakay mazmunni qog'ozga tushirib borish kitobxonning diqqatini aktivlashtiradi va ish jarayonini tezlashtiradi.

Ėzib borish tekstni e'tibor bilan atroflicha o'rganishni taqazo kiladi. Shuning uchun ham o'qib mazmunni qog'ozga tushirib borilganda, o'qish samarali bo'ladi. Bundan tashqari, bu usul mantiqiy fikrlashni ustiradi.

Konspekt olish uchun materiallar tanlar ekansiz, uni o'ylab, eng muximini ajratib, tekstning tarkibiy qismlari o'rtasidagi o'zaro aloqani aniqlab oling. Nixoyat, yozib borish xotirada yaxshi saqlanib olgan bilimingizni sistemaga solishda va mustahkamlashda muxim vosita bo'lib xizmat qiladi.

Bu keyingi ishlaringizda ham katta ahamiyat kasb etadi. Qisqa vaqt ichida biron-bir narsani takrorlash zarur bo'lib qolganda. Bu yozuvlarni bir ko'zdan kechirib chiksangiz, ilgari o'qigan hamma narsangiz yodingizda qayta tiklanadi. Psixologik xodisa bo'lgan xotiraning asosiy xususiyati ham shundadir.

Ėzib borishning bir qancha forma va ko'rinishlari mavjud. Ularni ba'zi bir xarakterli formalarini qo'yida qisqacha ko'rib o'tamiz:

Dastlabki yozuv va belgilar. Kitobni varaqlaganingizda yoki takroriy o'qigan vaqtingizda, uning chetiga yoki alohida qog'oz qistirmaga sag'ifa, abzats yoxud satrning qayd qilgan holda turli shartli belgilar, maqullovchi yoki rad etuvchi so'zlar, ba'zan esa butun jumlar bilan belgi, ta'kidlov alomatlari quyib borish mumkin.

K o n s p e k t. Yozuvning eng muxim shakli konspektdir. Konspekt bu o'rganilayotgan materialning qisqacha, yaxlit mazmuni bo'lib, u sarlavha va kichik sarlavhalarga bo'linadi. Konspekt tuzish ijodiy jarayon bo'lib, kishining mantiqiy qobiliyati va nutq madaniyatini ustiradi.

Birinchi kurs talabalariga, odatda, bir necha manbalar bo'yicha konspekt olishga to'g'ri keladi. Ular, ko'pincha, kitobdan butun-butun saxifalarni sidirg'asiga ko'chirib yozadilar va so'ngra ularni o'qishda o'zlari ham chalkashtirib yuboradilar.

Baqtni tejash maqsadida so'zlarni, ba'zi vaqtlarda esa butun bir jumlani qisqartirib yozishga harakat qiling. Kupincha, konspekt nuqul ko'chirmalardan yoki kitobning mazmunini o'z so'zingiz bilan qayta yozib chiqishga to'g'ri keladi. Bu ikki usul ham aniq yuldan chiqib ketishdir. Bunday xatoga yo'l quymang. Konspekt qisqa va lunda bo'lsin. Konspekt aniq va tartibli bo'lishi lozim. Uni faqat ruchka bilan yozish kerak.

Daftarning bir tomonidan joy qoldirib yozing. Unda kitobning sahifasi, mundarija, o'z fikr va muloxazalarigizni, e'tirozingizni, konspekt olish vaqtida tug'ilgan fikr va shu kabilarni tartib bilan yozib boring. Mavzu nomini yirik xarflar bilan aniq qilib yozing. Shundan so'ng kitobni tasvirlang: muallif ismi, familiyasi, kitobning nomi, qachon va qaerda chop etilgan, iloji boricha, ko'prok material singdirishga harakat qiling, lekin tekstning tushunarli bo'lishiga ziyon etmasin.

Bu diqqatni bir joyga to'plash va materialni yodda saqlab qolish uchun yordam beradi. Konspekt olishda 8...10 betlik materialdan - 2...3 bet yozib olish etarlidir. Konspekt olish fikrni ustiradi, uni sermazmun qiladi, nutq madaniyati, uslub va lug'atni takomillashtiradi, eng muximi ana shu fazilatlarni mujassamlashtirishda konspekt tuzishning o'zi katta omildir. Chunki bunda fikr to'g'ri, aniq tuziladi, material muloxaza qilinadi.

To'g'ri, konspekt olishga o'rganish avvalliga birmuncha qiyin va murakkab ko'rinadi. Lekin bundan chuchimaslik kerak. Agarda siz yozuvning ana shu shaklidan muntazam ravishda puxta foydalansangiz tezkorlik va malaka

paydo bo`ladi.

**Q i s q a c h a m a ` r u z a.** Mavzu bilan o`zaro bog`li bo`lgan bir yoki bir necha ishning mazmunini umumlashtirib qayta xikoya qilib berishdir. Qisqacha ma`ruza uchun 10-12 betlik materialdan bir sahifa xajmda yozib olish etarlidir.

T e z i s l a r. Bu kitob yoki maqolaga muxim fikrlarni, mustaqil to`plangan materiallarni keltirmasdan qisqa va aniq ta`riflashdir. Tezis rejaga muvofiq holda savollarga javob tariqasida tuziladi. Tezis rejaga qaraganda manbaning mazmunini mufassalroq bayon etadi.

Tezis tuzish ancha mushkil ish bo`lishiga qaramay o`rganilayotgan masalaning eng muxim nuqtalariga e`tiborni qarata bilish, muxtasar uslub paydo qilishga o`rgatadi. Tezislar ma`ruzadan ham kamrok bo`lishi lozim. Shunga ko`ra, 10...15 betdan chorak yoki yarim bet tezis olinsa bas.

Q i s q a y o z u v. Bu kitob maqolalarining mazmunini oddiy ta`riflash, bayon qilish va ba`zida uni baholash demakdir. Qisqa yozuvning o`ziga xosligi shundan iboratki, u o`kilgan tekistning mazmunini juda jiddiy o`ylab yozishni talab etadi. Uni o`z so`zingiz bilan lunda qilib tuzishingiz kerak. Qisqa yozuv odatda chorak qog`oz yoki undan ham kamroq bo`ladi.

Masalan, «Samarkandskiy gosudarstvenno`y universitet» (qisqacha tarixiy ocherk, 1977) nomli 206 betlik kitob uchun 7 satr, «Oynai Iskandariy» (tuzuvchi M.Mirsaidov, 1977) degan qariyb 400 saxifalik asar uchun 8 satr, 172 betlik «O`zbek tilining g`arbiy Samarqand shevalari» (N.Rajabov, 1977) monografiyasi uchun 13 satr, «Talabalarning mustaqil ishlari va vaqt byudjeti»(K.Xoshimov, J.Qultoev, 1977) nomli brashyurasi uchun 6 satr yozilgan.

Xullas, kitob har bir fuqaroning, jumladan. yoshlarning yaqin do`sti, maslahatdoshi, tarbiyachisi va ustozi bo`lib qoldi. Kitobsiz na faqat talabalik davrini, balki umuman insoniyat hayotining o`zini tasavvur qilib bo`lmaydi. Chunki kitob yoshlarga bilim beradi, ularni tarbiyalaydi va do`stlikka undaydi. Kitob o`rta va katta yoshdagi kishilarni ham tarbiyalaydi va qayta tarbiyalaydi. Bu jarayon qadimda shunday bo`lgan, hozir ham davom etayapti va bundan keyin ham shu tarzda bo`laveradi.

Shu sababli mamlakatimiz kitob chop ettirishga alohida ahamiyat berib kelmoqda. qisqasi, kitobsiz inson hayotini tasavvur etib bo`lmaydi. Aqliy mehnat kishilari uchun esa kitob birinchi darajali ahamiyatga ega bo`lib, usiz biron jabhada ish ko`rib bo`lmaydi. Chunki «Kitob mehnat kuroli» bo`lib, bizning shaxsiy hayotimizda hal qiluvchi omil bo`lib xizmat qiladi.

M.C. Mashhur kishilarning kitob haqidagi xikimatlaridan misol keltiring
--

Mustaqil ishga oid topshiriqlar

Belgilangan o`quv maqsadlariga erishganlik darajangizni aniqlang.
Mavzuga oid «Klaster» tuzing.

8-ma`ruza: Talabalarning o`quv tadqiqot va ilmiy tekshirish ishlari.

O`quv modullari.

1. Oliy o`quv yurtlarida talabalarning o`quv-tadqiqot ishlari.
2. O`quv-tadqiqot va ilmiy tekshirish ishlari shakllari.
3. Tadqiqotlarning tarixiy taqqoslash metodlari.

Aniqlashtirilgan o`quv maqsadlari talaba bu mavzuni to`la o`zlashtirgandan so`ng:

- Ilmiy tadqiqot ishlarini biladi;
- O`quv tadqiqot ishlarini izoxlaydi;
- Tarixiy pedagogik tadqiqotlar maqsadini tushuntiradi;
- Nazariy taqqoslash va solishtirish metodining ahamiyatini tushuntiradi;
- Ko`zatish metodini biladi;
- Ko`zatish metodi va eksperiment metodini farqlaydi.

Tayanch so`z va iboralar

Ilmiy tadqiqot ishlari, o`quv tadqiqot ishlari, tarixiy pedagogik tadqiqotlar, ko`zatish metodi, nazariy taqqoslash va solishtirish metodi, eksperiment metodi.

Mustaqil Respublikamiz Oliy o`quv yurtlari hayotida o`qitish jarayonining turli shakllari bilan bir qatorda, ilmiy-tekshirish ishlariga ham katta ahamiyat berib kelinmoqda. Chunki o`quv jarayonini boshqarishni ilmiy ishlarsiz tasavvur etib bulmaydi.

Ilmiy-tekshirish ishlarini bajarishda professor-o`qituvchilar bilan bir qatorda talabalar ham muntazam qatnashishlari zarur. Bu esa ularning turli tugaraklar va anjumanlardagi chiqishlarida, qulyozma, jurnallar va talabalar ilmiy to`plamlarida yaqqol ko`zga tashlanib turadi. Talabalarning ilmiy-tekshirish ishlari an`anaviy xarakterga ega bo`lib, o`quv - tadqiqot ishlari esa mustaqillikdan keyingi so`ngi yillarda ommaviy tus ola boshladi. Oliy o`quv yurtlarining hozirgi holati va rivojlanishi tendentsiyasi talabalarning o`z mutaxassislik sohalari bo`yicha ilmiy izlanishlar va ilmiy fikrlash qobiliyatini jonlantirish va rivoj toptirishdan iboratdir. Bu asosiy vazifa hisoblanadi. Oliy maktablardagi bu yangi vazifalar talabalarning o`z mutaxassisligi doirasidagi mashg`ulotlarga ijodiy yondashishini talab qiladi. Bu esa talabalar ilmiy-tekshirishlarini ko`prok o`quv jarayoni bilan qushib olib borishni takazo etadi. Ular oliy maktabdalik, nafakat talabalik davri uchun, balki kelgusi mustaqil ish faoliyati uchun ham yaraydigan ilmiy «**ozuqa**» olishlari zarur. Natijada ayrim oliy ma`lumotga ega bo`lgan mutaxassislar o`zlarining ilm-fan sohasidagi ishlarini muvaffaqiyat bilan davom ettirishlari mumkin. Shu munosabat bilan o`quv-tadqiqot ishlari talabalarni o`quv rejasi yoki o`z rejalari bo`yicha, u yoki bu mavzu bobida mustaqil ishlashga o`rgatishni vazifa qilib quyadi. Bunda nazariy-ilmiy va tajriba-tekshirishni tadbiq etish tavsiya etiladi. Talabalarning ilmiy-tekshirishda shaxsan ishtirok etishi ularni mustaqil izlanishlarga o`rgatadi va tanlangan ilmiy soha bo`yicha kelgusida qilinadigan harakatlarni belgilashda

yordam beradi. Bunday ishlar yuqori kurs talabalari uchun ko`prok tavsiya etiladi. Bitiruvchilarga yuklanadigan vazifa esa yanada kattaroqdir. O`quv-tadqiqot ishlari ilmiy-tekshirish Universitetida stajirovka va ishlab chiqarish tajribalari bilan to`ldiriladi. Talabalar bu vaqtlarda aniq ilmiy muammolar ustida ishlashda faol ishtirok etadilar.

Tajriba-tadqiqot ishlari materiallar va xodisalarning o`zgarishlari, konstruktorlik asboblari, nazariy masalalarni amalda sinab ko`rish, texnik faktlarni tekshirishdan o`tkazish kabilardan iboratdir.

Nazariy va tajriba-tekshirishlar kafedralar, muammoli tajribaxonalar va ilmiy-tadqiqot Universitetlari bilan o`zaro bog`lik holda olib boriladi. O`quv va ilmiy ishlarining qushib olib borilishi kurs va bitiruv malakaviy ishlarining materiallarini boyitadi va sifatli bajarilishiga zamin yaratadi.

Talabalarning o`quv-tadqiqot ishlari tajribali olimlar tomonidan boshqarib va rahbarlik qilib borilishi maqsadga muvofiqdir. Chunki talabalarning bu sohadagi ishlari rahbarning olib borayotgan ilmiy-tekshirishining ajralmas qismi yoki unga bevosita alokador bo`lishi yanada maqsadga muvofiq bo`ladi. Rahbarlar talabalarning ishlariga yaqindan ko`maklashadilar, maslahat beradilar. Bu xolat o`qituvchi va talabalarning hamkorligidan dalolat beradi, o`qituvchi va talabani bir-biri bilan bog`laydi, ular o`rtasidagi aloqani mustahkamlaydi.

Talabalar ilmiy-tekshirish ishlarining boshqa shakllari - ilmiy tugarak, konstruktorlik byurosi, tajriba stantsiyalari, tajribaxona, ilmiy muassasalar kabilarda aktiv ishtirok etishi ham mumkin.

Nazariy-ilmiy adabiyotlarni chuqur o`rganish, ishlab chiqish va so`ng tajriba o`tkazish orqali talabalar ayrim muammolarning bir sohasi bo`yicha ma`ruza yozadilar. Bu dastlabki ish shakli bo`lib, bora-bora ularni boshqa sohalar va muammolar ham qiziqтира boshlaydi. Talabalarning eng yaxshi ilmiy ishlari bo`yicha ko`riklar o`tkazish, shuningdek, ishlarini vaqtli matbuot va maxsus ilmiy tuplamlarda chop ettirib borish katta ilmiy-tarbiyaviy ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqotlarning tarixiy taqqoslash metodlari.

Tarixiy metodlar. Pedagogik tadqiqotlar, xususan, didaktik tadqiqotlar asosan o`qituvchining didaktik faoliyati bilan o`quvchilar taxsili natijasida hamda o`quvchilarning o`z faoliyati natijasida ular shaxsi, bilim, iqtidor va kunikmalarning o`zgarishi orasidagi bog`liqlikni ochishga qaratiladi. Xush, bunday bog`liqlik didaktik tadqiqotlar natijasidan olinadimi yoki ularni yaqin, uzok o`tmishdan olsa bo`ladimi?

Amaliy hayot bu muammoga o`zicha javob beradi.

Tarixiy taraqqiyotning turli davrlarida ijtimoiy munosabatlar ma`lumotning maqsad va vazifalarini belgilab bergan. Masalan, sanoat ishlab chiqarishini industrialashtirish, ilmiy texnikaviy revolyutsiyalari va uslublarini tanlashga ta`sir ko`rsatadi.

Tarixan ta`lim-tarbiyaga barcha xollarda yuz bergan o`zgarishlarning xususiyatlari, tamoyillari, qonuniyatlarini o`rganmasdan turib, ma`lumot masalalari haqida keng tasavvurga ega bo`lish mumkin emas.

Tarixiy pedagogik tadqiqotlarning maqsadi shunday qonuniyatlarni aniqlashdan iboratki, bu qonuniyatlar faqat yaqin va uzok tarixni o`rganishni emas, shu bilan birga ta`limni hozirgi axvolini, undan ham muximi-kelgusini belgilash imkonini bermog`i lozim.

Nazariy taqqoslash - solishtirish metodi.

Bunday pedagogik tadqiqot xalqaro pedagogik tadqiqotlarga asosan uch yoʻnalishda olib boriladi. Birinchi yoʻnalish turli mamlakatlardagi taʼlim va tarbiya tizimlarining umumiy qonuniyatlarini aniqlash. Dunyoda yuzdan ortiq taʼlim tizimlari mavjud. Albatta, mustaqil Oʻzbekiston Respublikasida eski taʼlim tizimi asosida ishlash mumkin emas. Boshqa mamlakatlarda amal qilib turgan taʼlim tizimlarining qulay ijobiy tomonlarini yuqorida koʻrsatilgan taqqoslash-solishtirish tadqiqotlari asosida bizning taʼlim tizimimizga koʻchirish mumkin.

Ikkinchi yoʻnalish har bir taʼlim tizimidagi oʻziga xos xususiyatlarni, ularni tasdiqlovchi faktlar toʻplamini, turli tarixiy davrlardagi va turli tarbiya muxitlarga oid oʻziga xos tomonlarni aniqlashdan iborat.

Uchinchi yoʻnalish taʼlim tizimlarining ichki xususiyatlarini aniqlash, uxshash va farqli xususiyatlarini belgilab, ularning taʼlim tizimidagi umumiy xususiyatlari bilan bogʻlik alomatlarini va alohida xususiyatlari sabablarini aniqlash imkonini beradi. Bu turdagi tadqiqotlar faqat statistik maʼlumotlar va anketalar natijasini taxlil qilish bilan chegaralanmaydi. Taʼlim tizimlarini tadqiq etish maxsus tayyorgarlikdan oʻtgan xalqaro ekspertlar guruhlaridan tamonidan tegishli ilmiy-tekshirish tashkilotlari bilan hamkorlikda oʻtkaziladi. Buning uchun ilmiy tadqiqotning maxsus kontseptsiyasi, usullarni tanlab olish mezonlari ishlab chiqiladi va matbuotda eʼlon qilinadi. Keng kitobxonlar va qiziquvchilar eʼtiboridan oʻtgan kontsepsiya xalqaro pedagogik uyushmalar tomonidan tasdiqlanadi va bevosita ishga kirishiladi.

Taʼlim tizimlarining uxshashlik va aloxidalik alomatlarini, ularning ildizlarini, sabablarini aniqlash bir muncha murakkab boʻlib, maorif tizimlarining yutuqlarini tadqiq etuvchi xalqaro assotsiatsiya eksperimentlari kabi atroflicha ilmiy-tekshirish ishlarini olib borishni talab etadi. Taʼlim-tarbiya omillarini tushuntirish va ularga tasnif berish nazariy taqqoslash-solishtirish usullarining asosiy qismi hisoblanadi. Albatta, hamma ilmiy-tadqiqotlar yigʻilgan faktlarni tushuntirish bilan ish tugamaydi.

Bu turdagi izlanishlarning yana bir oʻziga xosligi shundan iboratki, tabiiy fanlarda umumiy belgilar, atamalar, birliklar mavjud, pedagogik (didaktik) tadqiqotlarda esa bunday umumiy xalqaro birlik va atamalar deyarli yoʻq. Shuning uchun ham olingan natijalarning tasnifi bir muncha subʼektiv tus olishi mumkin. Bunday xollarda taʼlim haqidagi statistik maʼlumotlarga matematik ishlov berish orqali bir muncha toʻgʻrilanadi. Masalan, biron mamlakatdagi biron yilda tugʻilgan bolalarning maktablarga qamrab olinishi yoki taʼlimga ajratilgan milliy daromadning foizi shu mamlakatning maorif masalalariga munosabatini asosan obʼektiv belgilaydi. Qolgan omillar taʼlim ahvolini belgilashda yuqorida koʻrsatilgan statistik maʼlumotlarni yanada chuqurlashtiradi.

Kuzatish metodi. Taʼlim-tarbiyaning mazkur vaqtdagi xolatini aniqlash imkonini beradi. Kuzatish usulining maqsadi bor faktlarni yoritishdangina iborat bulmay, bizga oldindan quyilgan maqsad boʻyicha aniqlanishi lozim boʻlgan faktlarni qidirish va aniqlashdan iborat.

Kuzatish jarayonida tadqiqotchining qiziqtiruvchi muammo va vazifalar kuzatishni saylab oʻtkazishni taqazo etadi. Tadqiqotchi muayyan tanlangan muammoni hisobga olib, nimani kuzatish kerakligini tanlab oladi. Shuning uchun ham u kuzatish natijasida echilishi kerak boʻlgan muammoni xali kuzatishni boshlamasdan oldinroq biladi. Natijada tadqiqotchining kuzatish va natijalarini umumlashtirishi bir muncha osonlashadi.

Kuzatishga asoslangan tasniflash tadqiqotlari uch koʻrinishga ega: 1. Obzor tadqiqotlari; 2. Taʼlim tarbiya unsurlari orasidagi bogʻliklikni aniqlash; 3.

Izlanish tadqiqotlari.

Bunday sharoitda kuzatish to'g'ridan-to'g'ri yoki bevosita kuzatish faktlarni qabul qilib olish, tushunib etish va o'lchashdan iborat. Qabul qilib olish-sezish organlari yordamida tekshiruvchi ob'ekt aniq joyda turganligini qayd qilish; tushunib etish tanlab olingan, qayd kilingan ob'ekt oldindan aniq yoki noaniqligini aniqlashdan, o'lchash esa shu ob'ektning sonini aniqlashdan iborat.

Bilvosita kuzatish ob'ektni bevosita kuzatish imkoniyati bo'lmaganda amalga oshiriladi. Shunday ob'ektdagi shaxsning tug'ma qobiliyati, imkoniyatlari, intizomlilik, rostlik, kamtarlik, kamsuqimlik kabi xislatlari kirishi mumkin. Bunday xislatlarni bevosita kuzatish natijasida aniqlash qiyin. Shuning uchun ham tadqiqotchi o'ziga qulay ko'rsatkichlardan foydalanadi.

Bevosita va bilvosita kuzatish bilan bir qatorda faol kuzatish ham qullaniladi. Faol kuzatishda didaktik jarayonda bevosita tadqiqotchining o'zi ham qatnashadi va jarayonning borishiga ta'sir etadi. Bunda ishtirok etishning ijobiy tomoni shundan iboratki, tadqiqotchi bo'lib o'tayotgan jarayonning ikr-chikirlarini tushunib etadi, bu esa o'quv jarayonini tadqiqot talablariga yunaltirish imkonini beradi. Bunday usul ayrim kamchiliklariga qaramasdan, ijodkor-o'qituvchilar tomonidan talabalar faoliyatini faollashtirishda keng qullaniladi.

Bilvosita kuzatish tadqiqotchini xodisalarni o'rganishga ko'prok jalb etishga imkoniyat yaratadi. Mashg'ulotlar stenogrammlar, uchinchi odam tomonidan tayyorlangan kuzatish bayonlari, foto-kinolavhalar, rasmlar, diogrammlar, statistik mashg'ulotlar shular jumlasidandir. Bu hujjatlar pedagogik faoliyatning natijalarini hamda ijtimoiy muxit, xususan o'qituvchi faoliyatining talaba shaxsida uyg'otadigan o'zgarishlarni kuzatish imkonini beradi.

Ilmiy-tekshirish maqsadlarni aniqlash tadqiqotchini qiziqtirishi qolgan muammoli xolatni taxlil qilish extiyojidan kelib chikadi. Bunday xolatni taxlil qilish va unda ma'lum va noma'lumlarni aniqlash, qushimcha adabiyotlarni aniqlash, tajribali shaxslarning bu masalaga bergan bahosi tadqiqotchining asosiy va qushimcha muammolarini aniqlash imkonini beradi.

O'zgaruvchan parametrlarni aniqlash va taxlil qilish. O'zgaruvchilar - bu tekshirilayotgan ob'ektda turli ahamiyatga ega bo'lgan omillardir, o'zgaruvchilar - tekshirilayotgan ob'ektning bizni qaysi tomondan qiziqtirayotganligi haqida axborot beradi.

Ta'limning salmog'i, rivojlanish tezligi, maktabning yutuklari kabi murakkab o'zgaruvchilar ma'lum shakllar asosida tartibga keltiriladi.

Muammolarni gipotezalar zanjiriga aylantirish.

Tadqiqot jarayonning kelgusi bosqichi hisoblanadi. Tadqiqotning asosiy muammosi yoki shu muammodan kelib chiquvchi savollarga tadqiqotchi dastlabki xomaki javoblar qidiradi. Izlanish davomida u yangi qushimcha axborotlar tuplaydi va javoblar yanada rivojlanib boradi. Shunday qilib, quyilgan savollar gipotezalarga aylana boradi, kelgusi qidirish yo'nalishlarini belgilab beradi, boshqacha aytganda, ishchi gipotezaga aylana boradi.

Pedagogikadan olib boriladigan ilmiy tadqiqotlarning jiddiy bosqichlaridan biri tadqiqot muammosini echish bo'yicha bir yoki bir necha gipotezalarni belgilashdir. **Gipoteza** - bu muammoni echishning taxminiy yulini ilmiy tomondan tasdiqlash demakdir. Tadqiqotchi quyilgan muammoni atroflicha, hamma o'zgaruvchilarni hisobga olgan holda, taxlil qiladi. Gipoteza empirik jihatdan tasdiqlanmog'i darkor.

Buning uchun eksperiment loyihasi tuzilib, eksperimental tadqiqotlar o'tkaziladi.

Tadqiqot texnikasini va «asbob-uskunalarini»ni tanlash.

Bu tadqiqotni mazkur bosqichida tadqiqot ob'ekti o'zgaruvchilarni tanlashga ko'p jihatdan bog'liqdir. Tadqiqot texnikasini atamasi yoki tadqiqot usuli yoki tadqiqot faoliyatining ketma-ketligi atamasi ishlatiladi. Ilmiy usul bu ilmiy muammoni echishda qayta-qayta ishlatiladigan usuldir. Tadqiqot texnikasi deganda, tadqiqot muammosini echish uchun ob'ekt va xodisalar haqida axborot tuplashda tez-tez qaytariladigan usul tushuniladi. Masalan, kuzatish usulida turli tadqiqot texnikasi ishlatiladi: klinik kuzatish, savol javob, tanlab tekshirish va hujjatlar taxlili. Bunday texnologiyadagi ishlatuvchi «asboblari» turlicha buladi. Ulardan keng tarqalganlari anketalash, psixologik yoki didaktik testlardir.

Tezkor yuz beradigan jarayonlarni qabul qilib, keyinchalik chuqur tahlil qilish uchun maxsus texnikaviy vositalar ham ishlatiladi. Bulardan fotoapparat, kinokamera, proektor, magnitofon, videomagnitofon yoki o'lchov asboblari va boshqalarni ko'rsatib o'tish mumkin.

Didaktik eksperiment metodi. Eksperimentni qullash natijasida tadqiqotchi didaktik amaliyotga uning ichki tarkibiy tuzilishi, qonuniyatlarini, ta'lim ma'nosi va jarayonlarini ochish maqsadida «shung'iydi».

Agar kuzatishda tadqiqotchi borliqni qanday bo'lsa, shundayligicha idrok qilib tekshirsa, eksperiment jarayoni bu borliqni o'zgartirib, uning ichki qonuniyatlarini, unga ta'sir etishning samarador usullarini aniqlaydi.

Eksperimentning birinchi xususiyati shundan iboratki, unda tadqiqotchining o'zi qatnashadi, ishni tashkil etadi, amalga oshiradi va natijani taxlil qiladi.

Ikkinchi xususiyati - o'quv - tarbiya jarayonining ichki qonuniyatlarini aniqlash uchun jarayon sharoitlarini o'zgartirish imkoni tug'iladi. Uchinchi xususiyati - o'quv-tarbiya jarayonini nazorat qilish, ularni aniq o'lchash imkonidir. To'rtinchi xususiyati - eksperimentga ilmiy tus berib, ishchi gipotezani aniqlashtirishdir. Demak, eksperiment shunday ilmiy-tadqiqot usuliki, unda ta'lim-tarbiya jarayonini nazorat qilish, o'lchash va ishchi gipotezani yanada oydinlashtirish imkoni tug'iladi.

Yuqorida ko'rsatilgan to'rt xususiyat bajarilsa, eksperiment - laboratoriya eksperimenti hisoblanadi, birinchisi bajarilmasa, bu tabiiy eksperiment deyiladi.

M.C. Tadqiqotlarning tarixiy taqqoslash metodilarini sharhlang.
--

Mustaqil ishga oid topshiriqlar

Belgilangan o'quv maqsadlariga erishganlik darajangizni aniqlang.
Mavzuga «Senkveyn» tuzing.

9-ma'ruza: iqtisodchi - pedagogning kasbiy - pedagogik faoliyati.

O'quv modullari

- 9.1. Iqtisodchi-pedagoglarga quyiladigan talablar.
- 9.2. Iqtisodchi-pedagogni kasbiy-pedagogik tayyorgarligi va ularning vazifalari.

Aniqlashtirilgan o`quv maqsadlari talaba bu mavzuni to`la o`zlashtirgandan so`ng:

- Muhandis - pedagog shaxsiga qo`yilgan talablarni sanaydi;
- Muhandis - pedagogning kasbiy sifatlarini izohlaydi;
- Muhandis - pedagog shaxsiga qo`yilgan talablarni mohiyatini tushuntiradi;
- Muhandis - pedagogning kasb - hunar kollejidagi tutgan o`rni baholaydi;
- Mavzuga oid «Klaster» tuzadi.

Tayanch so`z va iboralar

Muhandis-pedagog, Muxandis-pedagog sifatlari, Muhandis-pedagog shaxsiga qo`yiladigan talablar, Muhandis - pedagogning pedagogik faoliyati.

Muhandis - pedagoglar tayyorlash oliy ta`lim tizimining bir bug`ini bo`lib, kasbiy pedagogik faoliyat bilan shug`ullanadigan mutaxassislarni tayyorlashi nuktai nazaridan o`ziga xos xususiyatlarga ega.

Kasb ta`limi mutaxassisi ma`naviy-ahloqiy jihatdan barkamol va malakali pedagog bo`lishidan tashkari, psixologiya hamda pedagogika qonunlari bilan ishlab chiqarishni rivojlantirish qonunlarining o`zviy aloqalarini chuqur anglay olishi ham zarur. Ayniqsa, mamlakatga rivojlangan davlatlar texnika va texnologiyalarining tez sur`atlar bilan kirib kelishi bunday mutaxassislarga bo`lgan ehtiyojning yanada ortishiga sabab bo`lmoqda.

Muhandis-pedagogika oliy ta`limining taraqqiyoti xalq xujaligining barcha sohalari rivojlanishiga bevosita ta`sir qiladi. Chunki muxandis-pedagoglar tayyorlash mutaxassisliklari bilan tegishli ishlab chiqarish o`rtasidagi o`zviy bog`liqlikni o`rta maxsus, kasb- hunar ta`limi orqali amalga oshiradi. Ushbu munosabat iqtisodiy, texnik, texnologik va boshqa sohalarda bo`yicha uzluksiz bo`lsagina ko`zlangan maqsadga erishish mumkin.

Hozirgacha «ITU» lar malakali ishchi kuchi etkazib berish bilangina shug`ullanib keldilar. Co`nggi vaqtlarda xalq xo`jaligi bundan ortig`ini talab ham qilmas edi.

Mamlakat iqtisodiyotidagi tub o`zgarishlar, uning xom ashyo yo`nalishidan raqobatbardosh pirovard maxsulot ishlab chiqarishga o`tayotganligi kasb-hunar ta`limiga butunlay yangi vazifalarni qo`ymoqda. Ular endi malakali ishchilargina emas, balki har biri bir necha kasbni egallagan texnik xodimlarni ham etkazib berishlari kerak. Kasbiy-texnik xodim - ishlab chiqarish xarakteriga tez moslashuvchi mutaxassis bo`lib, u davlat va nodavlat korxonalarida faoliyat ko`rsata olish imkoniyatiga ega bo`ladi.

Shunday qilib, xalq xujaligining ixtiyoriy sohasi bo`yicha kasb-hunar xodimlarini tayyorlab berishga mas`ul bo`lgan yuqori malakali muhandis-pedagoglarni etkazib berish uzluksiz ta`limning asosiy yo`nalishlaridan biri qilib qo`yildi.

Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi o`rta maxsus, kasb-hunar ta`limiga quyayotgan talablar muhandis-pedagoglar tayyorlashda ham o`z aksini topadi. Ular qo`yidagilarni o`z ichiga oladi:

- muhandis-pedagogning texnik, umumta`lim va gumanitar fanlar mujmuasi bo`yicha mutaxassis bo`lib chiqishiga erishish, ya`ni ta`limda texnik va gumanitar bilimlarning chuqur integratsiyasini vujudga keltirish;
- kamida 2-3 ta turdosh ixtisoslik fanlari bo`yicha dars bera olish qobiliyatiga ega bo`lgan pedagoglarni tayyorlash;
- kasb-hunar muassasalarida turli pedagogik vazifalarni bajara oladigan o`quv-tarbiyaviy jarayon rahbarlarini tayyorlash;

- kasb-hunar kollejlari o'qituvchilari bilan ishlab-chiqarish amaliyotlarini tashkil qilishda bozor iqtisodiyotiga xos turli moliyaviy munosabatlarni amalga oshira oladigan zamonaviy va keng qamrovli pedagoglar tayyorlash;

- muhandis-pedagoglar tayyorlash muammolari bo'yicha ilmiy izlanishlar olib borishga layoqatli ilmiy-pedagogik kadrlar etishtirish.

Muhandislik-pedagogika ta'limi chuqur insonparvarlashtirilgan oliy ta'limdir. Uning mazmuni qo'yidagilar:

a) Muhandis-pedagoglar tayyorlashni gumanitarlashtirib borish, ya'ni talabalarni ma'naviy- axloqiy tarbiyalashda xalqning boy ma'naviy merosi va umumbashariy qadriyatlarga asoslangan pedagogik an'analar, shakl va vositalaridan foydalanish;

b) talabalarining xuquqiy, iqtisodiy, ekologik va sanitariya- gigiena ta'limi hamda tarbiyasini shakllantirish;

v) Muhandis-pedagoglar tayyorlash mazmunining asosiy tarkibiy qismlaridan biri sifatida ta'limning psixologiya va pedagogikaga asoslangan yo'nalishlarini olish.

Kasb ta'limining barcha tizimi kasbiy ishlab chiqarish faoliyati bilan o'zviy aloqa tamoyiliga asoslanadi. Bulg'usi muhandis-pedagoglarga tegishli sohalar bo'yicha chuqur bilim berishdan tashqari ularni zamonaviy pedagogik texnologiyalar, texnik ta'lim jixozlari va EHMLar bo'yicha yuqori malakaga ega bo'lishlarini ta'minlash, o'qitish jarayonini tashkil qilish yo'nalishlariga kiradi. Shuningdek, iqtidorli talabalarni tabaqalashtirilgan asosda maxsus o'quv dasturlari bo'yicha izchil bilim olishlarini ta'minlash va ularga ixtisoslik bo'yicha maxsus bilim olishlari uchun shart-sharoitlar yaratish ham mazkur jarayonning tarkibiy qismlaridan biridir.

Muhandislik-pedagogika ta'limining rivojlanishi mazmun va shakl jihatidan mushtarak ketishi kerak. Mazmun, yuqorida bayon qilingan, Muhandis-pedagoglar tayyorlashni tashkil qilish maqsadi, asosiy yo'nalishlari va tamoyillarini belgilaydi. Shakl-tashkil qilishning barcha o'ziga xos xususiyatlarini mujassamlashtirgan o'quv-tarbiyaviy jarayondir.

M.C. Muhandis - pedagoglar qaerda va qanday maqsad bilan tayyorlanadi?

Muhandislik-pedagogika oliy ta'limida ta'lim-tarbiya jarayonining takomillashuvi qo'yidagi asosiy yo'nalish bo'yicha amalga oshiriladi:

- ta'lim-tarbiya jarayoni zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida, rivojlangan mamlakatlar tajribalaridan foydalanilgan holda, qat'iy qoliqlangan holatidan chiqarilib, ixcham va o'zgaruvchan, ta'lim mazmunining blok tizimi va boshqa vositalarini qo'llagan holda qayta tashkil qilinadi;

- muhandis-pedagoglar tayyorlashdagi ta'lim - tarbiya jarayoni fan va amaliyotda yangi yo'nalishlarini yuzaga kelishi va ishlab chiqarishning rivojlanib borishi bilan uyg'unlashgan holda o'z-o'zidan taraqqiy etib boradi;

- ta'lim - tarbiya jarayoni talabalarga axborot berish jarayonidan mutaxassis shaxsni shakllantirish jarayoniga o'tib boradi;

- ta'lim - tarbiya jarayoni muxassislarni tabaqalashtirilgan va yakka tartibda tayyorlash asosida tashkil qilinadi;

- ta'lim - tarbiya jarayoni talaba qobiliyatlarinig namoyon bo'lishini va uning ta'limga bo'lgan turli - tuman extiyojlarining qondirilishini, talabalar va professor-o'qituvchilar xususiyatlaridagi muvofiqliklarni xisobga olgan holda amalga oshiriladi.

Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi talablari darajasidagi muhandis - pedagoglar tayyorlash uchun gumanitar, texnik, pedagogik, metodik va boshqa

yo`nalishlardagi darslik va adabiyotlar yaratish ko`zda tutilmokda.

Ushbu adabiyotlar shaxsning qo`yidagi muhim kasbiy sifatlarini shakllantirishga qaratilgan bo`lishi darkor:

- ijtimoiy - siyosiy va pedagogik faoliyatga ishtiyoq;

- **ahloqiy sifatlar:** haqiqatguylik, jiddiylilik, g`oyaviy - siyosiy barkamollik, poklik;

- **bilim saviyasi:** yuqori darajada nazariy fikrlash, og`zaki - mantiqiy nutq, ilg`or pedagogik texnologiyalar, xususan, o`qitishning texnik vositalarini o`zlashtirish, sohaviy ilg`or texnika va texnologiyalarni o`rganish, ilmiy-tadqiqot ishlariga moyillik;

- **qobiliyati:** tashkilotchilik, ishchanlik, ijrochilik, yuksak pedagogik, texnik va ijodiy fikrlash

M.C. Kadrlar tayyorlash milliy dasturida muhandis - pedagoglar oldiga quyiladigan talablarni izohlang.

Mustaqil ishga oid topshiriqlar

Belgilangan o`quv maqsadlariga erishganlik darajangizni aniqlang.

Mavzuga oid «Klaster» tuzing.

A D A B I Y O T L A R .

1. Karimov I.A. «O`zbekiston kelajagi buyuk davlat». Toshkent. 1992 y.
2. Karimov I.A. «Buyuk maqsad yo`lidan og`ishmaylik». Toshkent. 1993y.
3. Karimov I.A. «Barkamol avlod O`zbekiston taraqqiyotining poydevori». Toshkent. 1999 y.
4. Г. Dadamirzaev. «Kasbiy ta`limni takomillashtirish». Toshkent. 1998y. «Ta`lim muammolari, ilmiy-uslubiy yutuqlar va ilg`or tajribalar» jurnali 22-24 - betlar.
5. O`zbekiston Respublikasi. Oliy ta`lim tizimini isloh qilish bo`yicha me`yoriy hujjatlar. Toshkent. 1998 y.
6. N. Rajabov. «Mutaxassislikka kirish». Toshkent. O`qituvchi. 1991y.
7. «Oliy o`quv yurtining fakulteti to`g`risidagi Nizom». O`z. Resp. O va O`MTB 1998 yil 5 .12.
8. «Oliy o`quv yurtlari kafedralari to`g`risida Nizom» 1- bandi, Oliy ta`lim me`yoriy hujjatlar to`plami, T., 2001 y. 294-297-betlar.